

OQILXON IBROHIMOV

MUSIQA

4-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi nashrga tavsiya etgan

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2017

UO'K 372.878(075)

KBK 85.31ya71

I-32

Taqrizchilar:

G. Dadabayeva – Respublika ta'lif markazi “Musiqa, san'at, mehnat ta'limi, jismoniy kamolot va salomatlik” bo'limi bosh metodisti;

O. Abdullayeva – O'zDK “Bastakorlik va cholg'ulashshtirish” kafedrasi mudiri, professor;

R. Xudoyorova – Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi 277-maktabning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan
ijara uchun chop etildi.

Ibrohimov O.

Musiqa: 4-sinf uchun darslik /Muall.: O. Ibrohimov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2017.— 112 b.

UO'K 372.878.(075)

KBK 85.31ya71

© **O. Ibrohimov**

© **G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2017**

ISBN 978-9943-4798-2-1

SO'ZBOSHI

Aziz o'quvchi! Har bir xalqning orombaxsh kuy-ohanglari, qo'shiq-aytimlari, bir so'z bilan aytganda, milliy musiqasi bo'ladi. Xalq musiqasi — ko'p va uzoq asrlik sinovlardan o'tgan va qalbimizga jo bo'lgan ma'naviy boyligimizdir.

Xilma-xil cholg'ularimiz va ularda sadolanib kelayotgan milliy navolarimiz esa ana shu ma'naviy boylikning ajralmas qismidir.

Qo'lingizdagi darslik sizlarni ana shunday ma'naviy go'zallik va boyliklardan bahramand etish istagida yozilgan.

Unda xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati va turli bayram marosimlari bilan bog'liq qo'shiqlari, milliy cholg'ulari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishhasiz, noyob kuy-qo'shiqlarni tinglaysiz, ulardan ayrim namunalarni kuylashga o'rganasiz. Shuningdek, O'zbekiston bastakorlari va kompozitorlarining Siz o'quvchilar uchun ijod etgan qo'shiqlari bilan tanishhasiz!

Darslikda qo'llangan quyidagi shartli belgilarni eslab qoling:

- | | | | |
|--|----------------------|--|-------------------------|
| | — musiqa tinglash | | — mustaqil o'qish |
| | — aytim mashqlari | | — savol va topshiriqlar |
| | — qo'shiq kuylash | | |
| | — nota bilan kuylash | | |
| | — musiqa savodi | | |

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MADHIYASI**

Abdulla Oripov

so'zi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov

musiqasi

Tantanavor

The musical score consists of eight staves of music for voice and piano. The vocal line is in common time, with a key signature of one sharp. The piano accompaniment features harmonic chords and rhythmic patterns. The lyrics are written below the vocal line in a cursive font. The vocal part includes dynamic markings such as *f*, *ff*, *p*, *mf*, and *U-lug'*. The piano part includes dynamic markings like *p*, *f*, *ff*, and *mf*.

1. Ser- qu- yosh, hur o'l- kam, el-
ga baxt,na- jot, Sen o'- zing do'st-lar- ga yo'l-dosh, meh-ri-
bon! Meh-ri- bon! Yash-na- gay to a- bad il-
mu fan, i- jod, Shuh-ra-ting por- la- sin to- ki bor ja-
hon! Oi- tin bu vo- diy-lar - jon O'z- be- kis-
ton, Aj- dod- lar mar-do- na ru- f hi sen-ga yor! U- lug'
xalq qud- ra-ti jo'sh ur- gan za-mon, O- lam- ni mah- li-yo ay- la-

1.
gan di- yor! 2. Bag'- ri

2.
gan di- yor!

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
 Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
 Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
 Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
 Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
 Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
 Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

KUZ



BIRINCHI CHORAK

XALQ AYTIMLARI VA CHOLG'ULARI

1–2-Mavzu. XALQ QO'SHIQLARI

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ajralmas qismini qo'shiq-aytimlar tashkil etadi. Mavzu va mazmun jihatdan xilma-xil bu qo'shiqlar o'zida xalq hayoti, turmush tarzini ifoda etadi. Shu bilan birga qo'shiqlarda odamlarning ona-Vatanga, tabiatga, atrof-muhitga, oila va yor-u do'stlariga mehr tuyg'ulari badiiy aks etadi.

Xalq qo'shiqlari dastlab el orasidan chiqqan dehqonlar, hunarmandlar, xizmatchilar va ziyolilar tomonidan turli vaziyatlarda to'qilgan. Biroq ko'p hollarda ularning nomlari bizga noma'lum bo'lib qolgan, chunki yangi to'qilgan qo'shiq, odatda, yozib olinmagan, balki og'zaki ravishda aytilgan va shu asnoda (yo'sinda) bir aytuvchidan ikkinchisiga,



otadan o‘g‘ilga, bobolardan nabiralarga o‘tib, omma orasida yoyilgan. Shu tarzda o‘zbek xalq qo‘schiqlari ajdodlardan avlodlarga ma’naviy meros bo‘lib, bizga qadar yetib kelgan.

Xalq qo‘schiqlarini aytish vaziyati va mazmuniga ko‘ra “Mehnat qo‘schiqlari”, “Oilaviy (to‘y) marosim qo‘schiqlari”, “Mavsum aytimlari” va “Bolalar qo‘schiqlari” kabi turlarga ajratish mumkin. Bularidan tashqari, madaniy hordiq chiqarish paytida aytishga mo‘ljallangan lapar, yalla va ashula kabi aytimlar xalq orasida keng tarqalgan.

QO‘SHIQ

Qo‘schiqlar ko‘proq 7 yoki 8 bo‘g‘inli she’riy bandlar asosida (jo‘rsozlarsiz) aytildi. Bunda bandlar orasida takrorlanib turuvchi maxsus naqarot misralari bo‘lmaydi.

Chaqqon, quvnoq

OH, LAYLI

Tom bo-shi- dato- g'o- ra, tan-dir to'-la zo- g'o-
ra, zo- g'o- ra- ni yo- pol- may (o'r- toq)
Cho - li kam- pir o - vo - ra.

Bolalarning “Tomdan tarasha tushdi”, “Olatoy”, “Chuchvara qaynaydi” singari aytimlari ham qo‘schiq janriga misol bo‘lishi mumkin.



TOMDAN TARASHA TUSHDI

O'rtacha

Tom-dan ta - ra - sha tush-di, zul-fim ya - ra - sha tush-di,
a-cham-ga qo'y-gan osh - ni Shod-mon ya- la - qi ich- di.
Shod-mon ya-la - qi - ni quv-lab-quv-lab ket-yap-sam, yo'l-dan qam-chin
to-pib ol - dim. Qam-chin- ni a-kam-gaber-dim, a-kam men-garo'-
mol ber - di, ro' - mol - ni qiz - ga ber-dim, qiz men - ga
don ber - di, Don - ni to - vuq - qa ber - dim, to - vuq men - ga tu -
xum ber - di. Tu - xum - ni o' - choq - qa qo'y - dim, taq et - di,
paq et - di, ik - ki ko' - zim bo - qib qol - di.

Qo'shiq namunalarini kasbiy musiqa ijodkorlari bo'lgan bastakor va kompozitorlar ham to'qiydilar. Bunda ular xalq an'analariga ijodiy tayanadilar. Kompozitorlar qalamiga mansub qo'shiqlar, xalq qo'shiqlaridan farqli o'laroq, ko'p ovozli bo'lishi, ya'ni ikki, uch va hatto to'rt ovozda kuylash uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Shu bois bu kabi qo'shiqlar ko'pchilik tomonidan jamoa (xor) bo'lib kuylanadi. Kompozitor Nadim Norxo'jayevning "Shaftoliga savolim" (Po'lat Mo'min she'ri) qo'shig'i xalq qo'shiqlari singari yetti bo'g'inli she'riy bandlar asosida kuylanadi. Shu bilan birga unda cholg'u jo'rnavozligi ham qo'llaniladi.

Ushbu qo'shiqni o'qituvchingiz yordamida kuylashga o'rganing. Buning uchun dastlab quyidagi mashqlarni aytib, ovozingizni sozlab oling:

▲ Aytim mashqlari.



SHAFTOLIGA SAVOLIM

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq

The musical score consists of six staves of music in 2/4 time, treble clef, and a key signature of one flat. The lyrics are written below each staff. The lyrics are:

Shaf- to -lim, oh, shaf- to- lim, oh, shaf- to -lim, oh, shaf- to- lim,
Qi- zi - lu oq, qi- zi- lu oq, qi- zi- lu oq
shaf - to - lim. Ham- ma men- day se- va- di,
Pish - gan - dama- za bo- lim. Shaf- to- lim.
Shaf- to- lim.

Shaftolim, oh, shaftolim, (oh),
Qizil-u oq shaftolim.
Hamma menday sevadi,
Pishganda maza bolim,
Shaftolim...

Asta aytib beraqol,
Seni topgan qay olim?
Indamadi shaftolim,
Qiyin ekan savolim,
Shaftolim.





ODDIY MUSIQA SHAKLLARINI ESLASH. BAND SHAKLI

Har bir musiqa asari muayyan tuzilishga ega bo'ladi. Uning ana shu tuzilishi esa musiqa shakli deb ataladi. Musiqa shakllari asarlarning qaysi janrda yaratilganligi va katta-kichikligiga qarab turlicha bo'ladi. Eng oddiy musiqa shakllarini xalq qo'shiqlarida uchratish mumkin.

Xalq qo'shiqlari, odatda, band shaklida bo'ladi. Bu shakl to'rt she'riy misra va unga uyg'un etilgan to'rt kuy tuzilmasidan tarkib topadi. Bunga yuqorida ko'rib o'tilgan "Oh, layli" qo'shig'i misol bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalq musiqa ijodida naqarotli band shakli ham ko'plab uchraydiki, bunda she'riy misralari o'zgaruvchan har bir band orasida kelgan naqarot o'zgarmasdan takrorlanib turiladi. Bunday shakllar asosan yalla janri aytimlariga xosdir.

?

1. Xalq qo'shiqlarining qanday turlarini bilasiz?
2. "Shaftoliga savolim" qo'shig'ining mualliflarini ayting.
3. "Shaftoliga savolim" qo'shig'ini yod oling.

3-Mavzu. MEHNAT QO'SHIQLARI

Mehnat qo'shiqlari — xalq tomonidan yer haydash, hosil yig'ish, tegirmon tortish, ip yigirish kabi jarayonlarda ijod etilgan va kuylangan.

Bajarilayotgan mehnat turiga qarab mazkur aytimlarni chorvadorlik, dehqonchilik va hunarmandchilik qo'shiqlari kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Xususan, dehqonchilik qo'shiqlari ham o'z mavsumiga qarab turlicha bo'lgan. Chunonchi, yer haydash paytida "Qo'sh haydash" (Qo'shchi qo'shig'i) kuylangan bo'lsa, hosilni yig'ib olishda "O'rim qo'shig'i" aytilgan. "Xo'p hayda" qo'shig'i esa xirmon yanchishda kuylangan.

○ O'rtacha



Xo'p hay- da- yo xo'p hay-da, xir- mon - ni qil - gil may- da,
Xir - mon - ni qil - ma-sang may-da sen- lar-ga ti - nim qay- da.

Hunarmandchilik qo'shiqlari gilam to'qish, do'ppi tikish, charxda ip yigirish paytida aytilgan:

URCHUQ

○ O'rtacha



E- shik ol -di - daqum - loq, me- ning i - pim yu- ma- loq,
E- lak i -chi - dake - pak, me- ning ip -gi - nam i - pak.

Kompozitorlarning qo'shiqlarida ba'zan she'r bandlaridan so'ng naqarotlar ham qo'llaniladi. Jumladan, kompozitor Xurshida Hasanovaning "Bolalik" qo'shig'i shunday shaklga ega. Bunda qo'shiqning bandlarini yakkaxon kuylay boshlasa, naqarotini hamma birgalikda aytadi. Ushbu qo'shiqni siz ham shu tarzda kuylang.



BOLALIK

Dilnur she'ri

X. Hasanova musiqasi

Quvnoq

The musical score consists of eight staves of music in 4/4 time, treble clef, with lyrics in English and their phonetic transcription below each staff. The lyrics are:

- Qan-day go'-zal, shi-rin-dir bo- la- lik,
- Un-dabiz-lar do- i- mo qo- lay- lik.
- Qu-vonch-lar-ga o- lam - ni to'l- di- rib,
- Er-tak-lar-da yur- gan-dek bo'- lay- lik.
- Qu-yosh ham nur so - char biz- lar- ga,
- Sho'x-sho-don o'- g'i - lu qiz- lar- ga.
- Os-mon-ning bag'- ri - da yay- ray-
- lik, bor bo'l-sin bo - la- lik.

Qanday go'zal, shirindir bolalik,
Unda bizlar doimo qolaylik.
Quvonchlarga olamni to'ldirib,
Ertaklarda yurgandek bo'laylik.

N a q a r o t:

Quyosh ham nur sochar bizlarga,
Sho'x-shodon o'g'il-u qizlarga.
Osmonning bag'rida yayraylik,
Bor bo'lsin bolalik.

Quvontirib ko'zlarni o'ynaymiz,
Tabassumsiz hech kimni qo'ymaymiz.
Biz bor yerda kattalar zerikmas,
Xursand qilib barchani to'yaymiz.

N a q a r o t



DO-MAJOR TONALLIGI

Do-major tonalligining asosiy tayanch pardasi (tonikasi) "do" tovushidir.

Mazkur major tovushqatori "do" pardasidan boshlanib yuqoriga qarab quyidagicha tuziladi:

I II III IV V VI VII VIII(I)

Yodingizda bo'lsa, major tovushqatorida yarim tonlar III va IV hamda VII va VIII(I) bosqichlar orasida yuzaga keladi. Shuningdek, I, III va V bosqich tovushlari turg'un (barqaror), II, IV, VI va VII bosqich tovushlari esa noturg'un (beqaror)dir. Siz kuylashga o'rganayotgan "Bolalik" qo'shig'i do-major tonalligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Quyidagi misolni 2/4 takt o'Ichoviga dirijorlik qilib, notalar asosida kuylang:

JIYDA

P. Po'latov she'ri Shoshmasdan



Jiy- da - jiy- da, jon jiy- da. Chi - lon jiy- da, non jiy- da,
 Jon- ga da-vo a- sal-san, do - ri - dar-mon, qon jiy-da.

X. Po'latov musiqasi

- ?**!
1. Mehnat jarayoniga mansub qanday qo'shiqlarni bilasiz?
 2. "Bolalik" qo'shig'ining she'rini yod oling.
 3. Do-major tonalligi haqida gapirib bering.

4-Mavzu. LAPAR

Lapar ikki kishi (yoki tarafma-taraf bo'lgan ko'pchilik) tomonidan aytishuv tarzida kuylanadi. Bunda taraflar birin-ketin, navbatma-navbat "savol-javob" shaklida qurilgan she'riy to'rtliklarni kuylaydilar. Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan "Bilaguzuk", "Qoraqosh", "Qilpillama" kabi laparlar shunday aytimlar jumlasidandir. Bolalarning "Oq terakmi, ko'k terak" aytim-o'yini ham lapar xususiyatlariga ega.

Ba'zan laparlarda raqs xarakteriga ega doira usullari ham qo'llanib, bu holat goho laparchilarning navbatma-navbat raqsga tushib, aytim kuylashlariga sabab bo'ladi. Laparlarni bastakor va kompozitorlar ham ijod qiladilar. Bunga kompozitor Mardon Nasimovning quyidagi "Bizdan sizga kim kerak?" aytim-o'yini misol bo'lishi mumkin:

 **Bolalar uchun yozilgan lapar qo'shiqlardan tinglang.**

 **BIZDAN SIZGA KIM KERAK?**

Y.Qurbanov she'ri

M.Nasimov musiqasi

mf O'rtacha tezlikda



Qo'- zi - choq - dek sak - ra - shib, sak - ra - shib,
 di - kir- di - kir o'y-nay - miz, o'y- nay - miz. Er - kin qush-dek
 yay- ra- shib, yay- ra- shib, sho'x- sho'x qo'shiq kuy- lay - miz,
 kuy- lay - miz. Oq te- rak - mi, ko'k te - rak,
 biz - dan siz - ga kim ke- rak? Ay- tin - giz, kim ke-rak?

a tempo

piu mosso

rit.

Q i z I a r: Qo‘zichoqdek sakrashib-sakrashib,
Dikir-dikir o‘ynaymiz, o‘ynaymiz.
Erkin qushdek yayrashib-yayrashib,
Sho‘x-sho‘x qo‘sinq kuylaymiz,
kuylaymiz.

Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Aytingiz, kim kerak?

B o l a l a r: “Gulchehra kerak”.

Maysazorda jo‘sh urib, jo‘sh urib,
Gijinglagan toychoqmiz, toychoqmiz.
Bir mayizni qirq bo‘lib, qirq bo‘lib,
Yeganlardek inoqmiz, inoqmiz.

Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Aytingiz, kim kerak?

Q i z I a r: “Baxtiyor kerak”.


H a m m a: Bog‘chamizning guliga, guliga,
Mehr qo‘yib qaraymiz, qaraymiz.
Baxmal gullar qo‘ynida, qo‘ynida
Kapalakdek yayraymiz, yayraymiz.



3/8 o‘Ichovi

3/8 o‘Ichovi tez sur’atda ijro etiladigan musiqa asarlarida qo‘llaniladi. Bu o‘Ichovning

yuqoridagi “3” raqami bir takt ichida uchta hissa borligini, quyidagi (maxrajdagi) “8” raqami esa bu hissalarning har biri nimchoraktalik cho‘zimga teng ekanligini anglatadi. Bunda uch hissadan birinchi hissa kuchli, ikkinchi va uchinchi hissalar esa kuchsizdir.



3/8 o‘Ichovida dirijorlik qilganda o‘ng qo‘l harakati quyidagicha bo‘ladi: “bir” deganda – qo‘l yuqoridan pastga tushadi, “ikki” deganda – qo‘l pastdan o‘ngga tomon harakatlanadi va “uch” deganda – o‘ngdan yuqori tomon ko‘tariladi.

- ?**
1. Lapar janri haqida gapirib bering.
 2. “Bolalik” qo‘srigini to‘liq holda kuylang.
 3. “Bizdan sizga kim kerak?” qo‘srigining she’rini yod oling.

5-Mavzu. YALLA

Yalla ko‘pgina xususiyatlari, jumladan, raqsbopligi, ijroda ko‘pchilik ishtirok etishi bilan laparga yaqin bo‘lgan janrdir. Ammo laparda, eng avvalo, tarafma-taraf aytishuv holati muhim bo‘lgani holda, yallada she’r, kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir. Shuningdek, yallalar laparlardan farqli o‘laroq, band-naqarot shaklida bo‘ladi. Bunda yallachi (yakkaxon) raqs-o‘yinga tushib bandlarni kuylasa, naqarotni ko‘pchilik birgalikda aytadi. Yallalarda raqsbop doira usullari va turfa cholg‘ulardan iborat ansambl jo‘rnavorligi qo‘llanilishi mumkin.

○ “Yallama yorim” xalq yallasini tinglang.

YALLAMA YORIM

O‘rtacha tez

Qal-dir-g'och qo-ra e-kan, qa-no-ti o-la e-kan, yosh-lik-da-gi o'r-toq-lar bir u-mr-ga Naqarot:
do'st e-kan. Yal-la-ma yo-rim, yal-lo-la, yal-lo-la-shay-lik, o'r-toq-la-shay-lik, uch-ta-to'rt-ta
bir bo'-lib, suh-bat-la-shay-lik.

Qo‘sishiq matnida uchraydigan nuqtali notaga e’tibor bering. Notaning o’ng tomoniga qo‘yilgan bitta nuqta shu nota cho‘zimini yana teng yarmiga oshirishini unutmang:



1. Yalla janri haqida gapirib bering.
2. Yalla janri qaysi jihatlari bilan lapardan farq qiladi?
3. “Bizdan sizga kim kerak?” qo‘sishig‘idan olgan taassurotlaringizni gapirib bering.
4. “Bolalik” qo‘sishig‘ini yoddan kuylang.

6–7-Mavzu. O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI

Xilma-xil o'zbek xalq musiqiy cholg'ularini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Torli cholg'ular.
2. Damli (puflama) cholg'ular.
3. Zarbli cholg'ular.

Torli cholg'ularda tovush hosil etish vositalari turlicha. Jumladan, dutor va do'mbira sozlari chertib chalinadi. Tanbur torlari esa ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan maxsus moslama — “noxun” (ma'dandan yasaladi) vositasida chertiladi.




Dutor



Tanbur

Qonun sozi ham barmoqlarga kiyiladigan maxsus noxunlar vositasida tirnab chalinadi.



Qonun

Qashqar rubobi, afg'on rubobi, ud kabi cholg'ular mizrob (mediator) vositasida chalinadi.



Qashqar rubobi



Afg'on rubobi



Ud



Ud

Torli cholg'ularni maxsus kamon vositasida ham chalish mumkin. G'ijjak, qo'biz, sato ana shunday torli-kamonli cholg'ulardir.



G'ijjak



Sato



Qo'biz

Chang cholg'usi ikkita cho'p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.



Chang



O'rtacha tez

AJAM II (taronasi)



MAKTAB

K.Turdiyeva she'ri

J.Abdurahmonov musiqasi

O'rtacha tez

Bu qan-day a- ziz dar - goh, Mu-qad-das
biz-ga har chog'. "Bi-lim",deb bosh-lar yo'l-ga, biz-lar-ni
ta-nish yo'l-ka. Qi- la- san hi- sob-ki-tob, be-ra- san sa-
vol - ja- vob. Qo'-ling-da daf- tar - qa- lam, un-

da qu-vonch-li o-lam! U-ni so'z-lay-miz maq- ta-b, U-ni
 a-tay-miz "Mak-tab!" Un-da har ku-ni quv- noq Ja-rang-lay-di,
 ja - rang - lay - di qo'n - g'i - roq,
 qo'n - g'i - roq, mak - tab!

O'quvchi, ustoz yurti,
 Uning ishi – "O'qi, yoz" yurti.
 O'rgatadi do'stlikka,
 Doim to'g'riso'zlikka.

Qilasan hisob-kitob,
 Berasan savol-javob.
 Qo'lingda daftar-qalam,
 Unda quvonchli olam!

N a q a r o t :

Uni so'zlaymiz maqtab,
 Uni ataymiz – "Maktab!"
 Unda har kuni quvnoq
 Jaranglaydi qo'ng'iroq.

?! 1. Quyidagi nota misolining 3/8 o'lchoviga muvofiq takt chiziqlarini qo'ying:

QUVNOQ BOLALAR

Sho'xchan

H. Muhamedova musiqasi

2. O'zbek xalq cholg'ulari necha guruhga bo'linadi?
3. Torli-chertma cholg'ularni nomma-nom ayting.
4. Torli-kamonli cholg'ular nomini ayting.
5. Torli-urma cholg'uning nomini ayting.



AFG'ON RUBOBI HAQIDA RIVOYAT

Buxoro xonining husnda tengi yo'q bir qizi bor ekan. Ammo u uyqusizlikka uchragan, kasalmand ekan. "Qizim o'lib qolmasmikin?" deb xon kun-u tun g'amda ekan. Qaratmagan tabibi, boqtirmagan kushnochi qolmabdi. Baribir qiz tuzalmay, ahvoli kundan-kunga battarlashaveribdi. Qizni ertalab Labi Hovuz oldiga chiqarib qo'yishar, kechasi qasr ichiga olib kirishar ekan. Xonning qizi Labi Hovuz



“Xayol”. Musawvir
Alisher Mirzo.

oldida o’ltirib, bog’da yurgan tovuslarga tikilib xayol surgani-surgan ekan. Ularni juda yaxshi ko’rar ekan-da. Tovuslar patlarini yoysa ko’ngli yorishar, o’yinga tushishsa quvnar ekan. Doim: “Shu tovuslar so’zlashib, qo’shiq aytib, raqsga tushishsa-ku?” – der ekan. Buxoroda yashovchi bir afg’on yigit bundan xabardor bo’lib qolibdi. U qo’li gul usta bo’lib, hatto quruq yog’ochga ham “jon kiritib” yuborarkan. Hunarini ishga solib, tovusga o’xshagan

bir asbob yasabdi. Uni olib xonning saroyiga boribdi. Xonga ro’baro’ bo’lib: “Men qizingizni tuzataman”, — debdi. Xon rozi bo’libdi. Afg’on yigit boqqa kirib, qizning yoniga kelibdi-da, o’zi yasagan tovussimon asbobni chala boshlabdi. Asbobning goh hazin, goh mungli, goh jo’shqin kuyiga berilib ketgan xonning qizi asta-asta uyquga ketibdi. “Uyqu dardga davo, bemorga shifo”, — deb beziz aytishmagan. Afg’on yigit asbobini chalaveribdi, xonning qizi maza qilib uxlayveribdi. Bora-bora afg’on yigit uni yaxshi ko’rib qolibdi. Qizga mehri oshgan sari qo’lidagi asbobi yana-da boshqacharoq bo’zlayveribdi. “Qizimga nima bo’ldiykin, bir xabar olay”, — deb boqqa chiqqan xon qizining uyqu og’ushida, yonidagi afg’on yigit esa qo’lidagi asbobni bo’zlatayotgan holda ko’rib:

“Tag‘in qizimning boshini aylantirib qo‘ymasin” – deb o‘ylab, yigitni bog‘dan haydab chiqaribdi. Shu tariqa qiz tuzalib ketibdi. Afg‘on yigitini ko‘p yo‘qlatibdi, topolmabdi. Xon qizining tuzalib qolganini ko‘rib, o‘ziga o‘xshagan xonning o‘g‘liga katta to‘y qilib berib yuboribdi. Afg‘on yigit qizning ko‘yida¹ o‘zi yasagan asbobni chalib yuraveribdi. U chalganda uyqusizlar uyquga ketibdi, kasallar tuzalibdi. Muhabbat bevaqt xazon bo‘lganlarning dardiga dard qo‘silibdi.

Shu-shu afg‘on yigit yasagan asbob “Afg‘on rubobi” deb ataladigan bo‘libdi.

(“**O‘zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari**” kitobidan.)

8-Mavzu. DAMLI VA ZARBLI CHOLG‘ULAR

An’anaviy xalq bayramlari, sayil va to‘y marosimlarini karnay-surnay sadolari-yu doira-nog‘oralarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, bu cholg‘ular eng avvalo shodiyona kunlar darakchisi sifatida xalq ma’naviy hayotidan o‘rin olgan.



Surnay



Karnay

¹ Ko‘yida – ishqida.



Doira



Nog'ora

Bulardan tashqari, yana nay, qo'shnay, sibiziq,
bulamon, changqo'biz kabi damli (puflama)
cholg'ular ham bor.



Nay



Sibiziq



Qo'shnay



Changqo'biz



Bulamon


Damli va zarbli cholg'ular ijrosida kuylar tinglang.



Minor tovushqatori

Minor tovushqatori major kabi turg'un va noturg'un bosqich tovushlaridan tarkib topadi. Minorda ham turg'un tovushlar I, III va V bosqichlarga, noturg'un tovushlar esa II, IV, VI va VII bosqichlarga to'g'ri keladi.

Iya-minor



Shu bilan birga, minor tovushqatorining major tovushqatori tuzilishidan muhim farqli jihatlari ham bor: minor tovushqatorida yarim tonlar II va III hamda V va VI bosqichlar orasida yuzaga keladi.



O'rtacha tez

Iya-minor

?

1. O'zbek xalq qo'shiqlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Torli cholg'ular nomini ayting.
3. Damli cholg'ular nomini ayting.
4. Qanday zarbli cholg'ularni bilasiz?



DOIRA



Qadim-qadim zamonlarda bir mamlakatning savdogarlari savdo qilish uchun safarga chiqishibdi. Yo'llari Cho'li Malikdan o'tar ekan. Yo'l yurib, yo'l yurisha ham oz emas, mo'l yurishib, Cho'li Malikning qoq o'rtafiga borib qolishibdi.

Bir payt g'ammlagan suvlari tamom bo'lib qolibdi. Suv sizlikdan birin-ketin sulayishib, yotib qolishibdi. Kuch-quvvatlari ketib, turib yurishga aslo madorlari qolmabdi. Karvonda bir yigit ham bor ekan. U o'zining meshidagi oxirgi suvni safardoshlari og'ziga tomchilab-tomchilab quyibdi. Odamlar biroz o'zlariga kelishibdi-yu, baribir issiq hamda chanqoqlikdan yo'lga tusha olmabdilar. Shunda boyagi yigit o'ylab-o'ylab, suvdan bo'shagan meshini yorib, aravaning g'ildiragiga tarang qilib tortibdi. Shundan keyin oftobga qaratib qo'yibdi. So'ngra uni taka-tumlata boshlabdi. Ovoziga mahliyo bo'lib qattiqroq taka-tumlatibdi. Bora-bora uni shunchalik ura boshlabdiki, asbobning ovozi butun cho'Ini larzaga keltiribdi. G'ayritabiyy bu ovozdan odamlar ham o'zlariga kelib, g'imirlay boshlashibdi. Ularda kuch-quvvat, xatti-harakat paydo bo'libdi. Ovoz

¹ Barxan – sahrolarda shamol ko'chirib yuradigan qumtepalar.

barxandan barxanga¹ o'tibdi,
tepalikdan tepalikka ko'chibdi.
Oxiri shu cho'lning narigi che-
tida ketayotgan boshqa karvon-
dagilarning qulog'iga ham yetib
boribdi. Karvondagilar: "Kar-
von halokatga uchrabdi, bo'l-
masa bunaqa ovoz chiqarmasdi.
Yordamga chaqiryapti, bormoq
kerak", — deb ularning oldilariga
yetib borishibdi. Suv berib,
falokatga uchragan savdogar-
larni o'zlari bilan birga savdoga
olib ketishibdi. Shu-shu doira
"baka-baka-bum, baka-baka-
bum" deb ovoz chiqara bosh-
ladimi, odamlarda tetiklik, dadillik,
jasurlik kayfiyatları uyg'onarkan.



(“**O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari**” kitobidan.)

IKKINCHI CHORAK

BAYRAM VA MAROSIM QO'SHIQLARI

1-Mavzu. BAYRAM VA MAROSIM QO'SHIQLARI



O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida bayram tusini olgan ko'plab marosim, sayil va turli o'yinlar shakllangan. Xususan, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, ko'pkari-uloq musobaqa o'yini, dor o'yini kabi tomosha va sayillar shular jumlasidandir. Ommaviy bayram va marosimlarning o'tkazilishi aksariyat kech kuz mavsumiga to'g'ri kelgan va u yangi mehnat mavsumi bo'lgan erta bahorga qadar davom etgan. Chunki, aynan shu pallada dehqonlar yig'im-terim ishlarini tugatgach, hordiq chiqarish uchun vaqt ko'proq bo'lgan.

Ushbu ommaviy tadbirlarni o'tkazishda musiqa muhim o'rinni tutadi. Jumladan, surnay, karnay va nog'ora-yu doira cholg'ularidan iborat ansambl sadolari tantanavor yangraydi. Bu cholg'ular bir vaqtning o'zida ham badiiy tinglov, ham jarchilik vazifasini bajaradi. Karnay va surnay sadolari aholini tantana, bayram boshlanganligidan xabardor etsa, ansambl ijrosidagi jozibali kuy-navolar shodlik tuyg'ularini ifoda etadi.

Har bir tomoshaga oid maxsus ijro etiladigan kuylar ham yuzaga kelgan. Masalan, dor o'yini va

qo‘g‘irchoqboz tomoshalari “Dorbozi”, “Duchava”, “Charx” nomli kuy sadolari ostida ko‘rsatilgan.

Masxaraboz va qiziqchilarning chiqishlarida, shuningdek, “Ot o‘yin”larida “Az-az”, “Yuz bir”, “Ot eroni”, “Norim-norim” kabi kuylar yangragan.

Shu bilan birga xalq sayillari, bayramlari va to‘y marosimlarida qo‘sish va ashulalar ham kuylangan.

⦿ **“Charx II” nomli kuyni tinglab, uni tavsiflab berishga harakat qiling.**

CHARX II

Ildam

▲ Ovoz sozlash mashqlarini bajaring.

Shoshmasdan

The image shows two musical staves, labeled 'a)' and 'b)', both in 2/4 time with a key signature of three sharps. Staff 'a)' consists of eighth-note pairs connected by horizontal lines. Staff 'b)' consists of sixteenth-note pairs connected by horizontal lines.

△ “Yaxshi bola” qo’shig‘ini bandma-band kuylashga o’rganing.

YAXSHI BOLA


P. Mo’min she’ri

N. Norxo‘jayev musiqasi

O’rtacha

The musical score for 'Yaxshi bola' features three staves of music. The first staff begins with the lyrics 'Ham- ma joy- ga ya - ra- sha- di yax- shi bo - la-' followed by 'yax-shi bo-la:' and ends with 'yax-shi bo-la, yax- shi bo-la.'. The second staff continues with 'Uy i- shi-ga qa- ra- sha-di' and ends with a repeat sign. The third staff concludes with 'O'y- nab yu - rib se - vi - na- di o'z - o'- zi- dan,' followed by 'yax - shi - li - gi se - zi - la - di' and ends with 'yuz - ko'- zi - dan, yuz - ko'- zi - dan, yuz - ko'- zi - dan.'

Koda



Ya-shay-ver-sin ham-majoy-da yax - shi bo - la, yax - shi bo - la.
Kel - ti - ra- di el - gafoy- da yax - shi bo - la, yax - shi bo - la.

Maktabidan qolmaydi kech,
Yaxshi bola-yaxshi bola.
Ikki baho olmaydi hech,
Yaxshi bola-yaxshi bola.
Ish buyursang deydi kulib:
“Xo‘p bo‘ladi”, “xo‘p bo‘ladi”,
Sheriklari — o‘rtoqlari
Ko‘p bo‘ladi, ko‘p bo‘ladi.

Yashayversin hamma joyda
Yaxshi bola-yaxshi bola.
Keltiradi elga foyda
Yaxshi bola-yaxshi bola.

- ?! 1. “Yaxshi bola” qo‘srigining nota yozuvida uchraydigan qaytarish belgisini aniqlang.
2. Qo‘sriq she’rini yod oling.

2-3-Mavzu. TO‘Y MAROSIMI QO‘SHIQLARI

To‘y — “o‘z nomi bilan yaqin do‘st-yor, qarindosh-urug‘ diydoriga, shirin-shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo‘sriqqa, kurash-u ko‘pkari tomoshasiga, bayram shodiyonasiga, kulgi va quvonchga to‘yishdir”¹.

¹ M a h m u d S a t t o r. “O‘zbek udumlari”. T., Fan. 1993-yil. 113-bet.

To'y marosimlarida musiqa muhim o'rin tutadi. Bunda ham cholg'u musiqa, ham qo'shiq aytimlari namoyon bo'ladi. Jumladan, to'y marosimlarida karnay, surnay va nog'oralardan iborat ansambl ijrosida sadolangan (taralgan) kuylar aholiga to'y boshlanganligidan xabar beradi va ayni paytda, tinglovchida tantanavor bayram kayfiyatini uyg'otadi, raqs o'yinlariga chorlaydi hamda unga jo'r bo'ladi.

To'ylarda, odatda, "Navo", "Navo Charxi", "Begi Sulton" singari kuylar ijro etiladi.



SURNAY NAVOSI

Vazmin

Kelinni kuyovnikiga uzatib borish vaqtida ayollar tomonidan aytildigani "Yor-yor"lar nikoh to'yi marosimining eng go'zal qo'shiq namunasidir. Nikoh to'yining ertasiga ertalab esa kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug'lari va qo'ni-qo'shnilariga kelin nomidan "Kelin salom" marosimi o'tkaziladi. Maxsus "Kelin

salom” aytuvchi tomonidan ma'lum kuy ohanglarida salom aytib turiladi, kelin esa egilib salom qiladi.



YOR-YOR

O'rtacha tez

Hay-hay o'-lan, jon o'- lan(o) ke-lin kel-di,
yor - yor - ro ke-lin kel-di, Qo'-shiq
bi - lan (o) to'y bi - lan(o) ke-lin kel-di:



MUNOJOT

Vazmin

sol-major

Hurmatli o'quvchilar! Siz notaga qarab mashq qilgan musiqa namunasi xalqimiz tomonidan qadimdan sevib aytilgan “Munojot” kuyining boshlanish qismidan olingan.

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Imomjon Ikromov (1891 — 1980) ushbu kuya ga hazrat Alisher Navoiyning "Sarvi gulro' kelmadi" g'azalini bog'lab, uning ashula yo'lini ijod etgan. Bu ashula shunday boshlanadi:



Imomjon Ikromov

**MUNOJOT
(Sarvi gulro' kelmadi)**

A. Navoiy g'azali

I. Ikromov musiqasi

Vazmin

Ke-chakel - gum- dur de-bon ul
sar-vi gul - ro' kel- ma- di-yo...

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, ushbu "Munojot" ashulasi Siz notaga qarab kuylagan "Munojot" parchasidan ma'lum darajada farq etadi. Jumladan, ashula yo'lining kuyi 4/4 takt o'Ichovida emas, balki 2/4 takt o'Ichovida berilgan.

I. Ikromov "Cho'li Iroq" va "Ajam" nomli mumtoz kuylarga ham A. Navoiy g'azallarini bog'lab, ularni xalqimizga taqdim etgan atoqli san'atkordir. Shu

bilan birga, I.Ikromov tomonidan ijod etilgan "So'lim", "Indamadi", "Gul teraman saralab", "Topilmas", "Qoshi qarosini ko'ring", "Ul qaro ko'z", "Kim desun" kabi ko'plab qo'shiq va ashulalari xalqimiz qalbidan mustahkam o'rin olgan.



VATAN MEHRI

J. Jabborov she'ri

I. Ikromov musiqasi

Tantanavor

Music score for 'Tantanavor' in 4/4 time, major key, treble clef. The score consists of six staves of music with lyrics underneath. The lyrics are:

Va-tan,sen, be-ba-ho gul- bog'-ni sev- dim,
Yash-na-gan sha-har-lar, qish-loq-ni sev -dim.
Su-vi shar- bat-shi - rin bu- loq - ni sev-dim,
Bax- tim- ga nur soch-gan chi-rog'- ni sev -dim.
Qa-d(i)r - don yo- ru do'st, o'r-toq-ni sev-dim.
Sen-da xalq-lar
o- zod, o'-zing mu-zaf- far, G'a-la-bang

us- ti- ga g'a- la- ba, za- far. Ja-hon-ga
 tar-qal- lar sen-dan xush-xa-bar, Bax-tim-ga
 nur soch - gan chi - rog' - ni sev - dim,
 Qa-d(i)r-don yo- ru do'st, o'r- toq- ni sev - dim.

Vatan, sen, bebahō gulbog'ni sevdim,

Yashnagan shaharlar, qishloqni sevdim.

Suvi sharbat – shirin bulog'ni sevdim,

Baxtimga nur sochgan chirog'ni sevdim,

Qadrdon yor-u do'st, o'rtoqni sevdim.

Senda xalqlar ozod, o'zing muzaffar,

G'alabang ustiga g'alaba, zafar.

Jahonga tarqalar sendan xushxabar,

Baxtimga nur sochgan chirog'ni sevdim,

Qadrdon yor-u do'st, o'rtoqni sevdim.

?!

1. Qanday to'y-marosim qo'shiqlarini bilasiz?
2. Quyidagi nota misollarida yarim tonlar qaysi tovushlar orasida joylashgan?

Sol major

Mi minor

4-Mavzu. XALQ RAQSLARI

Raqs – bu san'at turi bo'lib, unda insoniy tuyg'ular, ma'lum bir voqealar qo'l, oyoq va tana harakatlari orqali ifoda etiladi. Har bir xalqning sevimli kuy-qo'shiqlari bo'lgani kabi milliy raqslari ham bor.

O'zbek xalqining ana shunday raqslari qatorida "Lazgi", "Dilxiroj", "Tanavor", "Andijon polkasi" kabilarni aytish mumkin. Bu raqslarga, odatda, turli xalq bayramlarida, to'y-marosimlari va oilaviy yig'inlarda tushilgan.

Xalq raqslari o'ziga xos milliy jihatlarga ega bo'lib, ular raqsning kuyi, ritmi va raqqos harakatlarida yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ruslarning "Kamarincha" raqsi o'zgacha jozibasi va ayni paytda, hazilomuzligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi.

KAMARINCHA (КАМАРИНСКАЯ)



Hazilomuz



Ukrainlarning quvnoq “Gopak” raqsida insonning epchil va chaqqon harakatlari ifoda etiladi.



Chaqzon

GOPAK



Beloruslarning hayotbaxsh “Bulba” qo’shiq-raqsida kartoshka¹ o’simligining ekilishidan tortib, to hosili yig’ilib olingunga qadar mehnat jarayoni tasvirlanadi.



Quvnoq

BULBA (БУЛЬБА)



Из меш - ка бе - ри кар- тош - ку и пи- тай- ся



по - нем - нож - ку; мо- жешь есть е - ё ва- рё- ной



иль в мун - ди - ре за- пе- чён - ной. Трам - там - там, та- ра-

¹ “Kartoshka” so‘zi belorus tilida “bulba” deb ataladi.

1.

рам, там - там, без кар - тош - ки

ху - до нам, без кар - тош - ки ху - до нам.

2.



“Shag’ala” (Chag’alay) qoraqalpoq raqsida milliy xalq o‘yin harakatlari qo‘sish qaydiga bilan bog‘lanib keladi. Bunda chag’alay qushining baliq ovlash jarayoni turli harakatlar vositasida badiiy tasvirlanadi.



SHAG'ALA

Quvnoq, tez

Qoraqalpoq xalq o'yin-qo'shig'i

Shaq sha-g'a-la sha-g'a-la Jap-tin' bo-yin ja-g'a-la
I-lay suv-da ba-liq bar A-lal-may-san' sha-g'a-la.



KULCHA NON

P.Mo'min she'ri

O'rtacha tez

1. O-yim yop-di-lar kul-cha, moykul-cha, moykul-cha. Ye, de-di-lar


to'y-gun-cha, to'y-gun-cha, to'y-gun-cha. Kul-cha o'x-shar gul-cha-ga,

oh, oh, oh. Yu-zim o'x-shar kul-cha-ga, oh.

Naqarot:

Kul-cha no-nu kul-cha non, ko'-ri-ni-shi gul-cha non, kul-cha no-nu

kul-cha non, ko'-ri-ni-shi gul-cha non, gul-cha non,



2. Shirinligi o'zimday,
Issiqligi yuzimday,
Keling, o'rtoqlar, yeymiz,
Oyimga rahmat deymiz.

N a q a r o t:

Kulcha non-u kulcha non,
Ko'rinishi gulcha non.
Kulcha non-u kulcha non,
Ko'rinishi gulcha non.

?

1. Xalq raqlari haqida nimalarni bilasiz?
2. 2/4 takt o'lchovida qancha hissa bor?
3. 3/4 takt o'lchovida-chi?
4. Quyidagi nota misollarida yarim tonlar qaysi tovushlar orasida joylashganligini aniqlang:

a) b) c)

5. "Shag'ala" raqs-aytimini notalar asosida kuylang.

5–6-Mavzu. ALLA AYIMLARI

Xalqimizda mavjud odatga ko'ra, oilada yangi tug'ilgan to'ng'ich farzand sharafiga beshik to'yi marosimi o'tkaziladi hamda shu vaqtidan e'tiboran chaqaloq hayotida muhim bo'lgan 2–3 yillik

“beshik davri” boshlanadi. Ona chaqaloqni uxlatish maqsadida beshikni tebratib, qo’shiq kuylaydi. “Beshik vaziyati” bilan aytildigan bunday aytim “Alla” yoki “Beshik qo’shig’i” deb ataladi. Onalar ijodi bo’lgan bu aytimlarda bolani ovutishga qaratilgan so’z-iboralar, shuningdek, onaning farzandi haqidagi orzu-niyatlari bayon etilgan to’rtliklar badiha etiladi. “Alla eshitgan bola kelajakda o’z ota-onasiga mehrli, iymonli, e’tiqodli, ona-tuprog’iga, el-yurtiga sodiq, vatanparvar, insonlarga hamdard bo’ladi”¹.

○ “Alla” aytimini tinglab, undan olgan taassurotingizni gapirib bering.

ALLA

The musical score consists of two parts. The first part, 'Shoshmasdan', is in 2/4 time and features a melodic line with eighth-note patterns. The lyrics are: 'bo-lam, qu-loq sol-gin, al-la.' and 'bo-lam, shi-rin qo'-zim, al-la.'. The second part, 'O'zbek xalq ijodi', is also in 2/4 time and has a more rhythmic, percussive feel with sixteenth-note patterns. The lyrics are: 'Shi-rin al-lam ting-lab as-ta Sen qu-von-chim, if-ti-xo-rim,' and 'ux-lab qol-gin, al-la. ko'-rar ko'-zim, al-la.'

¹ Asrlarga tengdosh qo’shiqlar. Tuzuvchilar: Y.Abdurahmonov, J.Eshonqulov. Toshkent. 1991, 5-bet.

Alla aytimlari bastakor va kompozitorlar tomonidan ham ijod etiladi. Jumladan, avstriyalik kompozitor Wolfgang Amadey Motsartning “Alla” aytimi mashhur bo‘lib, u o‘zbek tilida shunday kuyylanadi:



ALLA

V. Motsart musiqasi

Shoshmasdan

Yot, bo - lam, ux - la qo' - zim,
Uy - lar - da o'ch - di chi - roq.
Ux - lar a - sal- a- ri - lar,
Ux - lar ba - liq - lar tinch - roq.
Ko'k - da oy yar - qi - ray - di.
De - ra - za - dan qa - ray - di.
Ko'z - la - ring yum - gin, qo' - zim,



yot - qu - von - chim, kun - du - zim.



la - la - la.



OYIJONIM ALLASI

T.Mahmudov she'ri
Shoshmasdan

F.Alimov musiqasi



Yo - qim - li, shi - rin bi - ram



o - yi - jo - nim al - la - si,



Dil-ga baxsh e-tar o - rom o-yi - jo- nim,



o - yi - jo - nim, o - yi - jo - nim al - la - si.



Ux - la, ux - la, qo' - zim, der,

Sen su- yan - gan to - g'im, der,
 Gul - ga to'l - dir bo- g'im, der, jon (ey).
 O - yi - jo - nim, o - yi - jo - nim,
 o - yi - jo - nim al - la-si.
 O - yi - jo - nim al - la - si.

Yoqimli, shirin biram
 Oyijonim allasi,
 Dilga baxsh etar orom
 Oyijonim, oyijonim, oyijonim allasi.

Uxla, uxla, qo'zim, der,
 Sen suyangan tog'im, der,
 Gulga to'ldir bog'im, der,
 Oyijonim allasi.

Alla tinglab bo'ldim shod,
 Ko'p so'zlarin oldim yod.
 Esdan chiqmas umrbod
 Oyijonim allasi.



“ALLA” HAQIDA RIVOYAT



Rivoyat qilishlaricha, jannat-dan quvilgan Odam Ato bilan Momo Havo bir-birlariga ko'ngil qo'yishib, egizak ko'rishibdi. Xudoning bu marhamatidan boshi osmonga yetgan Odam Ato shikorga¹ ketibdi.

Hammayoq osoyishta bo'lib, yer yuzidagi bu jilikni faqatgina ikki chaqaloqning betoqat yig'lagan ovozi buzar ekan. Momo Havo nima qilishini bilmay turganida uning yuragidan qandaydir bir jozibali alla qo'shig'i kelgan ekan:

Alla, bolam, baxtiyor,
Har ishning ham vaqtি bor.
Otag ketgan shikorga,
Alla, bolam, alla-yo.

Aytishlaricha, yer yuzida paydo bo'lgan birinchi go'dakka aytilgan alla mana shunday boshlangan ekan... Yer yuzidagi jamiki qo'shiqlar ona allasidan boshlangan. Biz tinglab orom olayotgan eng yaxshi qo'shiqlarning kelib chiqishi ham ona allasiga borib taqaladi.

(“Asrlarga tengdosh qo'shiqlar” kitobidan.)

¹Shikor — ov.



Sol-major tonalligi

Sol-major tonalligining asosiy tayanch pardasi (tonikasi) “sol” tovushi bo‘lib, kalit oldida bitta fa-diyez belgisi bor. Sol-major tonalligida yarim tonlar “si” va “do” (III—IV bosqich) va fa-diyez-sol (VII—I bosqich) tovushlari orasida hosil bo‘ladi. Qolgan bosqich (I—II, II—III, IV—V, V—VI, VI—VII) tovushlarining har biri o‘zaro I ton oralig‘ida joylashgan.

Shuningdek, I—III—V bosqich tovushlari (sol-sire) turg‘un, II—IV—VI—VII bosqich tovushlari esa noturg‘undir.

1/2 t
1 t 1 t 1 t 1 t 1 t 1/2 t
I II III IV V VI VII I-(VIII)



1. “Oyijonim allasi” qo‘srigini yod oling.
2. Quyidagi misolda qanday alteratsiya belgilari qo’llanganligini aniqlang:


OLMANI OTDIM

Hazilomuz



3. Quyidagi misollarning takt o'lchovlarini aniqlang:

№1



№2



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Xalq qo'shiqlari dastlab kimlar tomonidan yaratilgan?

- A) Dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar tomonidan.
- B) Bastakorlar tomonidan.
- C) Kompozitor va shoirlar tomonidan.

2. Qanday qo'shiqlar "Mehnat qo'shiqlari" deb yuritiladi?

- A) Vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar.
- B) Bolalar qo'shiqlari.
- C) Mehnat faoliyati bilan bog'liq qo'shiqlar.


3. Torli-kamonli cholg'ular qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) Chang, afg'on rubobi, dutor.
- B) G'ijjak, sato, qo'biz.
- C) Ud, tanbur, qonun.

4. "Yalla" deb nimaga aytildi?

- A) Sozandachilar jamoasiga.
- B) Band-naqarot shaklidagi aytim va raqs.
- C) Torli cholg'uchilar jamoasiga.

5.



1. Band va naqarot shaklidagi aytim va raqs janri?
2. Chaqaloqlarning ilk eshitadigan qo'shig'i?
3. Ukrain xalq raqsi.
4. Belorus xalq qo'shiq raqsi.
5. O'zbek milliy zarbli cholg'usi.

UCHINCHI CHORAK

MAVSUM QO'SHIQLARI

1-Mavzu. MAVSUM VA MAROSIM QO'SHIQLARI

O'zbek xalqining yil oylari va fasllariga bog'liq holda o'tkaziladigan an'anaviy marosim va udumlari bor. Masalan, go'zal bahor faslida Navro'z bayrami keng nishonlangan, lola sayillari hamda dehqonchilik mehnatining boshlanishi bilan bog'liq "Shox moylar" marosimi o'tkazilgan. Shuningdek, kuz faslida yig'im-terim ishlari olib borilgan bo'lsa, qish faslida gap-gashtaklar uyushtirilgan. Xalq og'zaki musiqa ijodida ana shu kabi mavsum-marosimlarga bevosita (yoki bilvosita) bog'liq qo'shiqlar ham yuzaga kelgan.



Qish

- Kompozitor Avaz Mansurovning “Qorbo‘ron” musiqasini tinglang va uning mazmunini gapirib bering.



QORBO‘RON

M. Abdushukurova she'ri

A. Mansurov musiqasi

Quvnoq

Musical score for piano, page 10, measures 86-87. The score consists of two staves. The top staff uses a treble clef and a common time signature, with a tempo marking of 8va. The bottom staff uses a bass clef and a common time signature. The music features eighth-note patterns and dynamic markings such as trills and accents. Measure 86 ends with a fermata over the bass note. Measure 87 begins with a dynamic of $\frac{8}{8}$.

Zar - ra - zar - ra, zar-rin qor, shosh-ma, sen-daar-zim

mf

This musical score consists of three staves. The top staff uses a treble clef, the middle staff an alto clef, and the bottom staff a bass clef. The key signature is one sharp. The vocal line begins with eighth-note pairs followed by quarter notes. The piano accompaniment provides harmonic support with chords. The vocal part includes lyrics in a non-Latin script.

bor. Zar - ra-zar-ra, zar-rin qor, shosh-ma, sen-daar-zim

This section continues the musical style from the first. It features a similar vocal line and piano accompaniment. The lyrics remain the same, with the addition of the prefix "bor." before the first line.

bor. Ha-de- maykel-sa bo' - ron

This section introduces a new vocal line. The piano accompaniment includes a sixteenth-note figure. The lyrics are "bor. Ha-de- maykel-sa bo' - ron".

qor-bo' - ron o'y- naytak - ron. Ha-de-maykel-sabo' - ron,

This section concludes the vocal part. The piano accompaniment features a rhythmic pattern of eighth and sixteenth notes. The lyrics are "qor-bo' - ron o'y- naytak - ron. Ha-de-maykel-sabo' - ron," with a fermata over the final note.

1.

qor-bo'-ron o'y- naytak - ron.

2.3 Ikkisi

Qor - bo' - ro - nu qor - bo' - ron,

So- la-san bun-chasu - ron.

Chin- dan bo'l-sang pah-la-von, Bel-la-shay-lik, qor-bo'-ron!

Rahmat: — Zarra-zarra, zarrin qor,
Shoshma, senda arzim bor.
Hademay kelsa Bo'ron,
Qorbo'ron o'ynay takror.

Bo'ron: — Uchib keldim, mana men,
Qani, ko'rsat kuchingni!
Chang'ida uch, chana min,
Qor otib, ol "o'chingni".


Naqarot:

Ikkisi: — Qorbo'ron-u qorbo'ron,
Solasan buncha suron.
Chindan bo'lsang pahlavon,
Bellashaylik, qorbo'ron!

R a h m a t: — Ko‘p maqtanma sen, Bo‘ron,
 Menga teng kelolmaysan.
 Men boshlasam o‘yinni —
 Bosh ko‘tara olmaysan.

▲ Aytim mashqlarini kuylang.

a)



b)



△ “Biz askarmiz” qo‘shig‘ini 4/4 o‘lchoviga dirijorlik qilib, notalar bilan ayting. Keyingi bosqichda she‘r bandlari va naqaroti bilan bog‘lab kuylang.

BIZ ASKARMIZ

I. Rahmon she‘ri

N. Norxo‘jayev musiqasi

Marsh sur’atida



Biz as- kar- miz, pos- bon- miz, U -lug‘ yo‘l- da kar- von - miz.



Tinch-lik u- chun qal- qon- miz, Hech bu -zil - mas qo‘r-g‘on-miz.



Biz as- kar- mis, pos- bon- mis, U -lug' yo'l- da kar- von - mis.



Tinch-lik u- chun qal- qon- mis, Hech bu -zil - mas qo'r-g'on-miz.

Naqarot:



Bir, ik - ki, uch, bir, ik - ki... Ay- ting, mar-rakim - ni - ki? Al-



bat mar -ra biz- ni - ki, Ja- sur o'g'-lon, qiz - ni - ki. Al-



bat mar-ra biz- ni - ki, Ja-sur o'g'-lon, qiz - ni - ki.

Ona yurt Turkistonda,
Yer-u osmon, ummonda
Chiniqishni qo'ymaymiz,
Tinchlik kuyin kuylaymiz.

N a q a r o t:

Bir, ikki, uch, bir, ikki...
Ayting, marra kimniki?
Albat marra bizniki,
Jasur o'g'lon, qizniki.

- ?! 1. "Qorbo'ron" qo'shig'idan olgan taassurotlaringizni gapirib bering.
2. "Biz askarmiz" qo'shig'ini yod oling.



2-3-Mavzu. QISH FASLI QO'SHIQLARI

Ma'lumki, qish faslida dehqon ham, yer ham dam olgan. Ana shu kezlarda mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, tengqur bolalar to'planishib gap-gashtaklar o'tkazishgan. Bunday gap-o'yinlar aslida "qish kunlariga mo'ljallangan bo'lib, uzun qish kechalarini obod, mazmunli qilish, ko'ngil yozish uchun tashkil etilgan"¹.

Xalq baxshisi Umar-qul Po'likan o'g'li.


Gap-gashtaklarda mehmondorchilik, qiziqarli suhbatlar, turli o'yinlar bilan birga yana she'rlar o'qilgan, qo'shiq, ashula va yallalar aytilgan, baxshilar ijrosida terma va dostonlar tinglangan.

Baxshi — bu "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon" kabi dostonlarning ijodkori va ijrochisi bo'lib, u, odatda, dostonlarni ham so'zlab, ham kuylab beradi. Do'mbira cholg'usi (ba'zan qo'biz, dutor) esa jo'rnavoz soz sifatida qo'llaniladi.

 **Quyidagi misolni 2/4 takt o'Ichoviga dirijorlik qilib, notalar asosida kuylang:**

QARI NAVO

Shoshmasdan



¹Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. Toshkent. Fan. 1993, 122-bet.

○ “Sovuq kimni izlaydi?” qo’shig‘ini tinglang va taassurotlaringizni gapirib bering.



SOVUQ KIMNI IZLAYDI?

P. Mo’min she’ri
O’rtacha tez

So - vuq kim - ni iz - lay - di,
Sha-mo - li g’iz - g’iz - lay-di.
Bi - la - siz - mi, so - vuq - dan Kim ku - lib, kim yig’ - lay-
Naqarot:
di. Bo’l - sa lan - ju dan - ga - sa,
tug - ma - si - ni taq - ma - sa, So - vuq tez - da
yi - qa - di, Un - dan g’o - lib chi - qa - di.

N. Norxo’jayev musiqasi

Kiyinvolib, shaylanib,
Yursa o'ynab, aylanib,
Bo'shashmasa kim agar
Sovuq unga bo'yin egar.

N a q a r o t:

Bo'Isa lanj-u dangasa,
Tugmasini taqmasa,
Sovuq tezda yiqadi,
Undan g'olib chiqadi.


Quvontirib yana-da,
Uchiradi chanada.
Bo'ling, deya, qahramon
O'ynatadi qorbo'ron.

N a q a r o t

?! 1. Quyidagi nota misollarining takt o'lchovlarini aniqlang:



2. "Sovuq kimni izlaydi?" qo'shig'ida qanday alteratsiya belgilari uchraydi?
3. Berilgan tovushqatorning qaysi pardalari orasida yarim ton oralig'i borligini aniqlang.



4-5-Mavzu. TO'XTASIN JALILOV HAYOTI VA IJODI

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor To'xtasin Jalilov (1896 – 1966) Andijon shahrida aravakash Jalil ota oilasida tug'ilgan. U bolaligidan musiqani sevgan va dastlab Oppoq Oxun va Muhammad tanburchilardan cholg'uchilik ko'nikmasini olgan. Keyinchalik qo'qonlik Yusufjon changchidan xalq musiqa boyliklarini mukammal o'rghanib, ularni idrok etish malakasini hosil etgan. Ustozlarning saboqlari kelajakda T.Jalilov mohir sozanda va ovozi yoqimli ashulachi bo'lib yetishishida, qolaversa, xalqchil kuy, qo'shiq va ashulalar ijod etishida muhim zamin bo'ldi. Ayni paytda, ijodkor yangi zamon ruhi bilan sug'orilgan musiqiy asarlari bilan o'zbek bastakorligi jabhasida yangi davr ham boshlandi. T.Jalilovning "Aziz Vatanim", "Ey, hur Vatanim", "To'ylar muborak", "Kokiling", "O'ynasin" kabi qo'shiq va ashulalari xalqimiz orasida mashhur bo'lib ketgan. Shu bilan birga T.Jalilov O'zbekistonda musiqali drama janri shakllanib, rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan san'atkordir. Jumladan, ijodkor "Halima", "O'rtoqlar", "Gulsara", "Nurxon", "Tohir va Zuhra", "Ravshan va Zulkumor", "Farg'ona hikoyasi", "G'unchalar", "Alpomish" kabi sahna asarlariiga musiqa bastalagan. T.Jalilov jami 40 dan ortiq sahna asarlariga musiqa ijod etgan.



To'xtasin Jalilov



SIGNAL

T. Jalilov musiqasi

O'rtacha tez

A musical score consisting of four staves of music. The top staff uses a treble clef, the second staff uses a bass clef, the third staff uses a treble clef, and the bottom staff uses a bass clef. All staves are in common time (indicated by a 'C') and have a key signature of one sharp (F#). The music features various note heads, stems, and rests, including eighth and sixteenth notes, as well as rests of different lengths. Measures are separated by vertical bar lines, and a double bar line with repeat dots is positioned between the first and second staves.



NAVBAHOR

N. Narzullayev she'ri

G. Qo‘chqorova musiqasi

O'rtacha tez

A musical score for a vocal performance. The score consists of four staves of music, each with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a time signature of 2/4. The lyrics are written below each staff in English. The first staff contains the lyrics "Fas-li nav-ba-hor" and "ki-rib kel-di e-lim - ga,". The second staff contains "Za-ri-ni soch-di qu-yosh" and "biz-ning o-naza-min-ga.". The third staff contains "Sho-yi yap-roq-la-ri-ni" and "yoy-di go'-zal bi-naf-sha.". The fourth staff contains "Xush-bo'y hid-la-rin so-chib," and "jil -ma-ya-di u biz- ga. Qan-day go-'". The music features various note values including eighth and sixteenth notes, and rests. There are also several fermatas (dots over notes) and grace notes indicated by small vertical strokes above the main notes.

zal-ki bu ba-hor, bu ba-hor, o-lam to'l-di gul-che- chak-ka,
 gul-che-chak-ka. Cha-raq-la-gan qu- yosh ku- lib,
 sa-xo-vat qi-lar el-ga. Qan-day g'o - zal-ki bu ba-hor, bu ba-hor,
 o - lam to'l - di gul-che- chak- ka, gul - che-chak-ka.
 Cha - raq - la - gan qu - yosh ku - lib,
 sa- xo - vat qi - lar el - ga.

Bahor chiroyin
 kuzatgin-chi sen bir on,
 Naqadar go'zal bahor,
 chiroyidan bo'ldik lol,
 Bu chaman maysazorlar
 yurtimizga yarashar,
 Jajjigina qalbimga
 cheksiz quvonch bag'ishlar.



BAXSHI JASORATI

– Darvozani ochamiz, mo‘r-malaxday¹ bostirib kelgan sahroyilarga endi bas kelib bo‘lmaydi. Darvozani ochmasak, shaharni yo suvga botiradi, yo o‘t qo‘yib, kunpayakun² qiladi, – debdi Toshkent biyi³ balo-qazoday yopirilib, qal’a devorlarini buzayotgan dushmanlardan qo‘rqib ketib.

– Biyimiz to‘g‘ri aytadilar, kalitlarni topshirmoq lozim. Ular ko‘pchilik, biz ozchilikmiz. Halizamon bostirib kirib, qirg‘inbarot qilishadi, – deb uning gapini ma’qullabdi o‘ng qo‘l yordamchi.

Boshqalar ham unga qo‘shilishibdi. Shundan so‘ng Toshkent oqsoqollari maslahatni bir joyga qo‘yib, darvozani dushmanga ochishga qaror qilishibdi. Shu payt ostonada juldurvoqi kiyimli, yuz-ko‘zi qon bir yigit paydo bo‘libdi.

– Yo‘q, darvozani ochmaymiz. Bosqinchilar shaharga kirsa, uni vayron qilib, o‘g‘illarimizni qulga, qizlarimizni cho‘riga aylantiradi. Xo‘p desangizlar, men bir o‘zim bosqinchilarni shum niyatlaridan voz kechtirib, izlariga qaytarib yuboraman, – debdi u.

– Qanday qilib?! Shunday dushmanni-ya! – deb hayron bo‘lishibdi yig‘ilganlar.

Biy ham:

– Bo‘Imagan gap?! Shuncha yigitlar daf etolmagan dushmanni bir o‘zing qanday daf eta olarding?! – deb hayron bo‘libdi. – Bir o‘zi

¹ M o‘ r-m a l a x d a y — qumursqa va chigirtka kabi.

² K u n p a y a k u n — yanchilib, yo‘q bo‘lib ketmoq.

³ B i y — bek (mansabdor shaxs), shahar hokimi.

dushmanga bas kela olmaydi. Kalitni dushmanlar qo'liga topshirmoq lozim.

Hammayoqdan shovqin-suron ko'tarilibdi. Shunda haligi yigit:

– Jangda men ham qatnashdim. To'g'ri, yovni qilich bilan daf etolmadik, eta olmaymiz ham. Ammo men baxshiman. Qani, do'mbiramni ishga solay-chi? Balki qilich daf etolmaganni do'mbira daf etar, – debdi.

Biy boshliq oqsoqollar o'ylab-o'ylab, oxiri baxshining taklifiga rozilik bildirishibdi. Baxshi yigit do'mbirasini qo'liga olib, qo'rg'onning eng baland joyiga chiqib, dushman turgan tomonga qarab olib, do'mbirasini chala boshlabdi... Yov-yovlab yurganlardan biri o'q-yoyi bilan uni qulatmoqchi bo'lgan ekan, sarkardasi yo'l qo'ymabdi.

Baxshi yigitga qarab:

– Hoy, yigit, bu yoqqa tush, – deb baqiribdi.
Baxshi yigit qo'rg'onning tashqarisiga chiqibdi.
– Kimsan, kasb-koring nima? – deb so'rabdi sarkarda.
– Baxshiman, – deb javob beribdi u.
– Baxshi bo'lsang, yaxshi odam ekansan.
Qo'lingdagi do'mbirang bilan bir zumda meni ham kuldirib, ham yig'lata olsang, seni omon qoldirib, yurtingni qamal qilishni to'xtataman-da, orqamga qaytib ketaman. Buning uddasidan chiqa olmasang, teringni shilib, tanangni dorga torttiraman. Shahrинг kulini ko'kka sovurib, yer bilan yakson etaman, – debdi.

Baxshi yigit rozi bo'libdi. Chunki baxshining o'zi ham, do'mbirasi ham tobida ekan-da! U do'mbirasiga qarab: "Tulporim, kuchingni ko'rsat, shunday sayraki, kulgidan buning ichagi uzilsin, yig'idan ko'zi yumilsin", debdi-da, qulog'ini buray boshlabdi.

Do'mbira shu yerning tutidan qilingan emasmi, baxshi yigitning so'zini "ma'qullaganday" popugini silkitib, "sayray" ketibdi. Qo'shiqni shunday aytibdiki, tog'lar, yer tebranibdi, dov-daraxtlar silkinibdi. Bir payt bosqinchchi lashkarboshining ko'zidan yoshi shashqator oqib:

– Bo'ldi, bas qil, yuragimni ezib yubording! – deb uni zo'rg'a to'xtata olibdi.

Baxshi yigit do'mbira chertib, qo'shiq aytishdan to'xtabdi. Keyin yana qo'shiq boshlabdi. Avjiga chiqqanda, dushman boshlig'ining kulgidan ichaklari uzilay-uzilay debdi. Hamma hayron emish. Negaki, sarkarda umrida bunaqangi ahvolga tushmagan ekan-da, ya'ni bir zumda ham yig'lab, ham kulmagan ekan-da!

Sarkarda o'ziga kelib:

– Ko'p joylarni qilich kuchi bilan zabit etdim. Ammo seni zabit eta olmadim, qo'shig'ing taslim etdi. Men niyatimdan qaytdim. Izimga qaytaman. Ammo bir iltimos qilsam, yo'q demaysanmi? – debdi.

– Aytинг, – debdi baxshi yigit.

– Men bilan ketsang, o'ng qo'l vazirim qilib olaman. Butun umring rohat-farog'atda o'tadi, – debdi sarkarda.

– Yo‘q, men shu yerda tug‘ildim, shu joyda o‘laman, – debdi baxshi.

Shunday qilib, baxshi yigitning do‘mbirasi bilan qo‘srig‘i Toshkent qal’asini xonavayron, elini talon-toroj bo‘lishidan saqlab qolgan ekan.

(“**O‘zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari**” kitobidan.)



NAY SADOSI

Sulton Husayn Boyqaro ko‘p vaqtini ovda o‘tkazarkan. Kunlardan bir kun u shikorda juda charchabdi. Chodiriga qaytib: “Men uxlamoqchiman!” – debdi. Hech kim churq etmabdi.



“Men uxlamoqchiman!” – debdi yana. Hech kimdan “Naynavosi”. Musavvir sado chiqmabdi. “Men uxlamoqchiman!” – debdi tag‘in Husayn Boyqaro. A’yonlari-yu mulozimlari u yoq-bu yoqqa yugurib sharob keltirishibdi, qaytaribdi, kanizlardan kiritishibdi, sulton haydab chiqaribdi. Sardorlar sultonni uxlatalamiz, deb o‘zlarini o‘tga-cho‘qqa urishibdi, ammo qo’llaridan hech narsa kelmabdi. Sultan g‘azablanib, qahr otiga minibdi-da, qaytgunicha chorasini topmasalarling, hammangni dorga osaman, deb yana shikorga chiqib ketibdi. Vazirlar o‘ylab-o‘ylab, bu muammoni hazrati Navoiydan bo‘lak kishi yecholmaydi, deb shoirga chopar yuboribdilar. Navoiy yumushlarim



“Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro”.
Musavvir **Sa'dulla Abdullayev**.

ko‘p, deb ovga chiqmagan ekan. Chopar borib Navoiyga bor gapni aytibdi. Navoiy gap nimadaligini darrov tushunib, Naychi bobo degan mashhur naychini o‘zi bilan birga olib, Husayn Boyqaro yoniga jo‘nabdi. Ovxona o‘rtasiga qurilgan “Sulton o‘tov”ga naychini kiritib yuborib, o‘zi boshqa bir o‘tovga tushibdi. Naychini ko‘rgan Husayn Boyqaro xursand bo‘lib ketib:

– Men sevgan kuyni chaling, bir orom olay,
juda toliqdim, – debdi.

Nay tilga kirib biram bo‘zlabdiki, sulton uyquga ketganini ham bilmay qolibdi. Tong otish oldidan nay yana xonish qilibdi. Sulton kayfiyati tetik uyg‘onibdi. Xizmatkorlaridan birovini yo‘qlatib so‘rabdi:

- Nay ovozi bilan uxlab, nay ovozi bilan uyg'onishimni kim topdi? Ayt, bosh to'lovi beraman.
- Mavlono Navoiy, – deb javob beribdi xizmatkor.
- Do'stim Alisher? Qani u, tez kelsin, – debdi sulton Husayn shodligi ichiga sig'may.

Sulton yasovullari Navoiyga bu xabarni yetkazib, Husayn Boyqaro huzuriga chorlayotganini aytibdilar.

– Ofarin! Tasanno! Kechasi-yu kunduzi oromim o'zingizsiz, do'stim, – deb Husayn Boyqaro Navoiyni izzat-ikrom bilan qarshi olibdi.

○ “Mirzadavlat” kuyini tinglang.

MIRZADAVLAT

Hazilomuz

An'anaviy cholg'u kuyi

The musical score for "Mirzadavlat" features six staves of music. The first three staves are for a treble clef instrument, likely a flute or recorder, with a continuous melody. The fourth staff is for a bass clef instrument, providing harmonic support. The fifth and sixth staves are also for treble clef instruments, continuing the melodic line. The notation includes various note values such as eighth and sixteenth notes, along with rests and dynamic markings like dots and dashes.

- ?! 1. To'xtasin Jalilov ijodiga mansub asarlarning nomlarini aytинг.
2. "Navbahor" qo'shig'ini ifodali kuylang.
3. "Navbahor" qo'shig'ini yod oling.
4. "Baxshi jasorati" rivoyati nima haqida?
5. "Nay sadosi" rivoyatida kimlar obrazи ifodalangan?

6-7-Mavzu. RAMAZON MAROSIMI AYIMLARI

Ramazon marosimi hijriy-qamariy (oy) taqvimi muborak ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab kattalar yoki bolalar ishtirokida o'tkaziladi. Bunda marosim ishtirokchilari bo'lgan ramazonchilar xufton vaqtida har bir xonodon eshigi oldida to'planishib, yaxshi niyat-istiklar bilan "Ramazon" yoki "Yo, Ramazon" aytimini kuylashadi. Bunga javoban uy egalaridan turli pishiriq va hadya-ehsonlar olishadi. Xilma-xil ko'rinishlarda mavjud bo'lgan ramazon aytimlari mazmunan o'zaro yaqin bo'ladi. Jumladan, ularning she'riy to'rtliklarida xonodon egalariga nisbatan yaxshi istak va ezgu niyatlar bildiriladi, ba'zan esa hazil-mutoyiba, mazmunli bandlar ham kuylanadi.

1

NISHOLDA

R. Tolib she'ri

D. Omonullayeva musigasi

Quvnoq

Musical score for 'Quvnoq' featuring lyrics in English and Inuktitut. The score consists of two staves of music with corresponding lyrics below each line.

Quvnoq

To'y- da,bay-ram-da, Ro'-za ay-yom-da, Tan- siq ni-shol- da,
Tor-tiq, ni-shol-da. Muz-qay-moq-dan zo'r, ma-na, ya-lab ko'r.

Oh-oh ni-shol-da, op-poq ni-shol-da, ma-za-li, tot - li, oh!
 Mis - li nov - vot - li, oh! Oh- oh ni- shol - da,
 op - poq ni- shol - da! Muz - qay -
 moq- dan zo'r, oh! Ma-naya-lab ko'r, oh! Oh- oh ni- shol-da,
 qay - moq ni- shol-da! Qay - moq ni- shol-da!

To'yda, bayramda,
 Ro'za ayyomda
 Tansiq nisholda,
 Tortiq nisholda.

Muzqaymoqdan zo'r,
 Mana, yalab ko'r.
 Oh-oh nisholda,
 Qaymoq nisholda.

N a q a r o t:

Mazali, totli – oh!
 Misli novvotli – oh!
 Oh-oh nisholda,
 Oppoq nisholda.

Muzqaymoqdan zo'r, – oh!
 Mana, yalab ko'r, – oh
 Oh-oh nisholda,
 Qaymoq nisholda!

Buncha ham shirin,
 Kim bilar sirin?
 Oh-oh nisholda,
 Qaymoq nisholda.

Mehmonga yuzim,
 Xizmatda o'zim.
 Tayyor nisholda,
 Mador nisholda.

N a q a r o t

△ “Onajonim, sog‘ bo‘ling” qo‘sishig‘ini
kuylashga o‘rganing.

ONAJONIM, SOG‘ BO‘LING

M.Dadaboyev she’ri va musiqasi

O‘rtacha



1. Meh-ri dar-yo



o-nasiz, so‘z-la-ri dur - do-na-siz. Eng a-ziz ham-



xo-na-miz, o-na-jo - nim, sog‘ bo‘-ling, nur-ja-ho-nim,



sog‘ bo‘-ling,



2. Haq ka-lo-min so‘z-la-gan, al- la ay-tib



kuy-la-gan,

Biz-ni do-im

o'y-la-gan, o- na- jo - nim, sog' bo'-ling,
 so - ya - bo - nim, sog' bo'- ling.

3. Issiq chehra yuzingiz,
Chaqnab turar ko'zingiz,
Bizga g'amxo'r o'zingiz,
Onajonim, sog' bo'ling,
Jismi jonim, sog' bo'ling.
4. Sizsiz bizning baxtimiz,
Boyligimiz, taxtimiz,
Sizga xizmat – ahdimiz,
Onajonim, sog' bo'ling,
Jonajonim, sog' bo'ling.

 **Quyidagi nota misolining takt o'Ichoviga muvofiq nota tayoqchalarini (shtil) qo'yib chiqing:**

- ?**
1. “Nisholda” qo’shig’ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.
 2. “Nisholda” qo’shig’ini 4/4 takt o’lchoviga qanday dirijorlik qilish kerak?
 3. “Onajonim, sog’ bo’ling” qo’shig’ini yod oling.

8–9-Mavzu. NAVRO’Z BAYRAMI QO’SHQILARI



Go’zal bahorni bayram fasli deb ataydilar. Chunki bu faslda Navro’z, ya’ni yangi yil bayrami keng nishonlanadi. Navro’z bayramida qo’shiq-yallalar kuylanadi, o’lan-aytishuvlar va turli xil qiziqarli o’yinlar o’tkaziladi. Shuningdek, bu bayramda ko’klam o’simliklari unib chiqishi munosabati bilan aytiladigan alohida qo’shiqlar ham mavjud. Masalan, boychechak va binafshalarning ochilishi shodlik tuyg’ulariga sabab bo’lgan va bu tuyg’ular maxsus aytimlarda o’z ifodasini topgan. Bu holatni, jumladan, boychechak haqidagi qo’shiqlarda his etamiz. Boychechak Navro’zning darakchisi hisoblangan, chunki uning unib-o’sib chiqishi Navro’z kuniga to’g’ri keladi. Shu bois boychechakni qir-adirlardan topib kelib, u haqida shodlik qo’shig’ini uyma-uy yurib kuylaganlar va shu tarzda bu xushxabarni qo’ni-qo’shni, mahalla ahliga yetkazganlar.



BOYCHECHAK

Sho’x

Boy-che- cha-gim bog’- lan-di, qo-zon to’ - la ay- ron -dir,

O’zbek xalq qo’shig’i

Ay-ro-ning-dan ber-ma-sang, qo-zon-la-ring vay-ron-dir.
 Qat-tiq yer-dan qaz-lab chiq-qan boy-che-chak, yum-shoq yer-dan
 yu-gu-rib chiq-qan boy-che-chak. Boy-che-chak-ni tut-di-lar,
 tut yo-g'och-ga os-di-lar, qi-lich bi-lan
 chop-di-lar, bax-mal bi-lan yop-di-lar.

Navro'z kunlari shodlik tuyg'ularini ifoda etuvchi cholg'u kuylari ham ijro etilgan. Ana shunday ko'hna kuylarning ayrimlari bizning davrgacha yetib kelgan. Xususan, "Navro'zi Ajam", "Ajam taronalari" singari kuylar shular jumlasidandir.





NAVRO'ZI AJAM

Shoshmasdan

O'zbek xalq kuyi



NAVRO'Z QO'SHIG'I

N.Narzullayev she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha tez

Da-la, qir-ga, mo - mo - jon, Bir- ga- la- shib bo- ray- lik.

Chuch - mo - ma - lar chi - qib - di,

Das - ta-das - ta te - ray - lik.

Chuch - mo - ma - ni,



mo-mo-jon, Ko'z -ga sur- tay- lik su- yib. An- vo- yi hid-



la-ri- dan Bah-ra o-lay- lik to'-yib. O-mon, o-mon,



o - mon - lik, Ko'r - may - lik hech yo - mon - lik.



Ko'r - may - lik hech yo - mon - lik.

- | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>1. Dala, qirga, momojon,
Birgalashib boraylik.
Chuchmomalar chiqibdi,
Dasta-dasta teraylik.</p> | <p>Chuchmomani, momojon,
Ko'zga surtaylik suyib.
Anvoysi hidlaridan
Babra olaylik to'yib.</p> |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Naqarot: Omon, omon, omonlik,
Ko'rmaylik hech yomonlik.

- | | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>2. Ulab shomni saharga,
Baxtimizni so'raylik.
Kecha bilan kunduzning
Uchrashganin ko'raylik.</p> | <p>Shudringlarga, momojon,
Yuzimizni yuvaylik.
Quyosh bilan birga biz
Gul Navro'zni qutlaylik.</p> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Naqarot: Omon, omon, omonlik,
Ko'rmaylik hech yomonlik.



Fa-major

Fa-major — bu asosiy tayanch pardasi (tonikasi) “fa” bo‘lgan major tonalligi bo‘lib, uning kalitoldiga bitta **si-bemol** belgisi qo‘yiladi.

Fa-majorning turg‘un tovushlari I, III va V bosqichlarda, noturg‘unlari II, IV, VI va VII bosqichlarda joylashadi. Yarim tonlar **Iya** va **si-bemol** (III—IV) hamda **mi** va **fa** (VII—I b.) tovushlari oralig‘ida yuzaga keladi.



CHILDIRMA

D. Omonullayeva musiqasi

Chaqqon

Fa-major

?

1. Navro‘z bayrami haqida qanday qo‘shiqlarni bilasiz?
2. “Navro‘z qo‘sfig‘i”ni yod oling.
3. “Childirma” kuyi 6/8 takt o‘lchoviga qanday dirijorlik qilinadi? (O‘ng qo‘lda ko‘rsating.)

TO'RTINCHI CHORAK

BAHOR FASLI QO'SHIQLARI

1-Mavzu. BAHOR FASLI QO'SHIQLARI HAQIDA TUSHUNCHА

Mavsum qo'shiqlari orasida go'zal bahor fasliga bag'ishlangan xalq aytimlari alohida o'rin tutadi.

Tabiatning uyg'onish davri bo'lgan bahor chog'i lolayu gullarning ochilishi, butun borliqning chamanzorlar tusini olishi, sayroqi qushlarning chamanzorlar ichra yoqimli xonishlari katta-yu kichik qalbiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi, olam-olam quvonch va zavq ba'g'ishlaydi. Bu kabi go'zal manzaralar xalqimizning shoirta'b iste'dodli vakillari tomonidan to'qilgan ko'plab she'r va qo'shiqlarida tarannum etilgan. Jumladan, "Bahor keldi" nomli xalq qo'shig'ida bu faslning betakror tarovati shunday vasf qilinadi:



BAHOR KELDI

Shoshmasdan

O'zbek xalq qo'shig'

Bahor kel-di, o-chil-di gul-lar har yon-da,
Bul-bul-lar say-ra-sha-di u yon-bu yon-da.



Toshdan toshga echkilar Sakrab o'ynaydi. Tog' bag'rida qo'zilar O'tlab ma'raydi.	Tog'dan ko'lga tiniq suv Tushdi shildirab, Ko'l ichida suv to'la Turar miltillab.
-------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------

Bahor faslida qir-adirlarda lola-gullar ochilib, tabiat manzaralari yanada go'zal tus oladi. Shunday damlarda xalqimiz lola sayli bayramini o'tkazgan. Yoshlar, o'spirin bolalar qir-adirlarda sayr qilishib, quchoq-quchoq lola terishgan, so'ngra ularni qo'ni-qo'shnilariga, qarindosh-urug'lariga ulashishgan hamda lola haqida qo'shiqlar kuylab, turli o'yinlar o'ynashgan.



LOLA

O'zbek xalq qo'shig'i

Quvnoq

Lo - la, lo - la, lo - la - jon, o' - sar jo - ying da - la - da,
 Lo - la, lo - la, lo - la - jon, chi - da - ding - mi ja - la - ga,
 Yur, sa - yil - ga bo - ray - lik, lo - la - lar - ni ko' - ray - lik,
 Qu - cho - g'i - mis to'l - di - rib lo - la - gul - lar te - ray - lik.

Go'zal bahor manzaralari bastakorlarimiz ijod etgan kuy va qo'shiqlarda ham o'z aksini topgan.

Xususan, xalqimizning sevimli san'atkori Yunus Rajabiy ijodiga mansub "Bahorim" kuyida ko'rkm fasl ila uyg'ongan nafis tuyg'ular ifodasi his etiladi.



BAHORIM

O'rtacha tez

Yunus Rajabiy musiqasi

Musical notation for the song "BAHORIM" in common time (C). The melody consists of two staves of music with lyrics written below them. The lyrics are: "Yer-ni qor qop- lab yo- tar, Sen u-chun tong- lar o - tar. Meh- ring o' - ti - da- muz, qor E-rib soy-lar - ga o- qar. Boy-che-cha-gim, boy-che-chak, Ku-lib chiq-qan". The notation includes various note values such as eighth and sixteenth notes, and rests.





BOYCHECHAGIM OMONLIK

Qambar Ota she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi

Tez

Musical notation for the song "BOYCHECHAGIM OMONLIK" in common time (C). The melody consists of three staves of music with lyrics written below them. The lyrics are: "Yer-ni qor qop- lab yo- tar, Sen u-chun tong- lar o - tar. Meh- ring o' - ti - da- muz, qor E-rib soy-lar - ga o- qar. Boy-che-cha-gim, boy-che-chak, Ku-lib chiq-qan". The notation includes various note values such as eighth and sixteenth notes, and rests.



CODA



Qo'-sha-san chi-roy, che-chak.

Naqarot:


Husning emas bir onlik,
O'zing ezgu omonlik.
Har kim ko'ziga surtar,
Ko'rmaylik deb yomonlik.

Tun-kun nurga intilding,
Qish qahrin tashlab
kelding.
Dillarda qadring baland,
Bahorni boshlab kelding.



Re-major tonalligi

Re-major — asosiy tayanch pardasi (tonikasi) "re" bo'lgan major tonalligi bo'lib, kalit oldida fadiyez va do-diyez belgilari bor.



Re-majorning turg'un tovushlari I, III va V bosqichlarda joylashadi (re, fa-diyez, lya). Qolgan bosqich (II, IV, VI va VII) tovushlari (mi, sol, si, do-diyez) noturg'undir.

- ?! 1. Bahor fasligaatalgan qanday qo'shiqlarni bilasiz?
2. "Bahor keldi" qo'shig'ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.
3. "Boychechagim omonlik" qo'shig'ini yod oling.

2-Mavzu. BOLALAR XALQ QO'SHIQLARI

Uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan bolalar qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularda yosh avlodning jo'shqin hayoti, yil fasllari va turli bayramlarga munosabati o'ziga xos ifoda etiladi.

Bolalar qo'shiqlarining ko'pchiligi o'yin bilan yoki o'yin vaziyatida aytilgan. Bahor faslida kuylangan "Binafsha", "Chittigul", "Yomg'ir yog'aloq", "Laylak keldi" singari qo'shiqlar shular jumlasidandir. Masalan, bahor chog'i yomg'ir shivalab yog'arkan, shu fursatda quvongan bolalar o'yinga berilib, mutoyiba ila "Yomg'ir yog'aloq" qo'shig'ini kuylaydilar.



YOMG'IR YOG'ALOQ

O'rtacha **O'zbek xalq qo'shig'i**

Yom- g'ir yo'-g'a- loq, yam -ya- shil o't - loq, En - di
e - kin - lar chi- qa- rar qu - loq, Yash -na- sin da-



N a q a r o t:

Tarnovdan toshib,	Yashnasin dala,	Yomg'irdan foyda,
Oqadi shoshib.	Ochilsin lola.	Maysaga donga.
Ariqlar to'lar	Dala qo'ynida	El serob bo'lar
Zo'r anhor bo'lib.	Oqsin shalola.	Paxtaga donga.

Binafsha va boychechaklarning unib-o'sishi ham bolalarning quvnab o'ynashlari va qo'shiq kuylashlariga sabab bo'lgan.



BINAFSHA

Quvnoq



VATAN

X.Rahmat she'ri

X.Hasanova musiqasi



So'y-lay-man u-ning haq-da.
Di-yor gul-ga to'-liq-dir.



Osh-sin ya-nadov-ru-g'i, O'y-lay-man shu-ning haq-da.
U tinch- lik-ka bay-roq-dor, Shum u-rush- gayo'l yo'q -dir!



Va-tan qo- ra ko'-zim-dir,



Dil - dan chiq - qan so' - zim - dir.



Ar - doq - lay - man o - nam - dek,



Va - tan, xal- qim, o' - zim - dir.

Niyati pok, ulug'dir,
Diyor gulga to'liqdir.
U tinchlikka bayroqdir,
Shum urushga yo'l yo'qdir!

N a q a r o t :

Vatan qora ko'zimdir,
Dildan chiqqan so'zimdir.
Ardoqlayman onamdek,
Vatan – xalqim, o'zimdir.

?

1. Bolalar qo'shiqlari haqida nimalarni bilasiz?
2. "Vatan" qo'shig'ining mualliflari kim?

3-Mavzu. BASTAKOR KOMILJON JABBOROV

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Komiljon Jabborov (1914 – 1975) milliy musiqamiz rivojiga katta hissa qo'shgan san'atkordir. U dastlab akasi Mo'minjondan g'ijjak chalishni o'rgana boshladi. Keyinchalik ustozlari — Ro'zimat Isaboyevdan chang, g'ijjak va tanbur, Sobirjon Siddiqovdan g'ijjak va Muhiddinhoji Najmiddinovdan dutor mashqini oldi. Voyaga yetgach, K.Jabborov musiqa san'atining ham ijrochilik, ham ijodkorlik sohalarida samarali faoliyat ko'rsatdi. Xususan, u g'ijjakda "Gul mavsumi", "Navo", "Dugohi Husayn" kabi murakkab tuzilishli mumtoz kuylarni yuksak mahorat bilan ijro etgan. Shu bilan birga K.Jabborov musiqali drama, kuy, qo'shiq va ashula sohasida ham barakali ijod qildi. Jumladan, kompozitor Sulton Hayitboyev bilan hamkorlikda "G'ulja ustida nur", kompozitor Doni Zokirov bilan hamkorlikda "Nodira", "Mening jannatim" nomli dramalarga musiqa bastaladi. Shuningdek, ko'plab qo'shiq va ashulalar ijod etdi. "Obod o'Ikam", "Toshkent piyolasi", "Diyorimsan", "Shifokorlar", "Sog'indim", "Mubtalo bo'ldim senga", "Assalom", "Vatan", "Ko'zlaring", "Ey pari", "Etmasmidim",



Komiljon
Jabborov

“Nazzora qil”, “Bu ko‘ngil” shular jumlasidandir. Masalan, sozandaning shoir Habibiy so‘ziga bastalagan dilrabo kuyli “Diyorimsan” ashulasi xalqimiz orasida mashhur bo‘lib ketgan. Mazkur ashula shunday boshlanadi:



DIYORIMSAN

Habibiy so‘zi

K. Jabborov musiqasi

O‘rtacha tez

3/4

3/4

ey o - zod, go' - zal

o'l - kam (jo - ni - mey), hur - mat - li di - yo -

rim - san, Ko'p zah - mat i - la

top - gan (jo - ni - mey) bax - tim - sa - nu yo -

rim - san. Jo - nim ka - bi as -

ray - man, no - mus i - la o - rim - san.

Ko'ng - lim o - chi - lur boq - sam (jo - ni - mey),

o - ro - mu qa - ro - rim - san.



KO'KLAM KELADI

**P.Mo'min she'ri
O'rtacha**

Sh.Yormatov musiqasi



Har yi- li ko'k -lam ke-la-di, na-na-na-na, na-na-na-na.



Ya-na ham ko'r -kam ke-la-di, na-na-na-na, na-na-na-na.



I-liq -lan-sa ha-ro-rat, el- ga ro-hat- ha-lo-vat, El- ga ro-



hat - ha-lo- vat. O...

Bu-lut qo-chib yig' -lay- di,



O, O...

A-riq -qa suv sig'-may-di,




Bo'-yin cho'-zib sha- mol - ga, So-vuq qo-



char shi-mol-ga.

Har yi -li ko'k-lam ke-la-di,



Chumoli ham tinmaydi, Bekorchi ko'rinmaydi. Ko'klam bilan albatta Har jonzot harakatda.	Bag'rini keng ochar yer, Ishlaganda chiqar ter. Har yili ko'klam keladi, Yana ham ko'rakam keladi.
--------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------

- ?**!
1. "Diyorimsan" ashulasining ijodkori kim?
 2. "Diyorimsan" ashulasini notalar asosida kuylang.
 3. "Ko'klam keladi" qo'shig'ini yod oling.

4–5-Mavzu. BAHOR ELCHILARI VA TABIAT

Ma'lumki, xalqimiz qadimdan laylak, turna, qal-dirg'och kabi qushlarni bahor elchilari sifatida e'zozlab keladi. Chunki bu qushlarning uchib kelishi yaxshi kunlardan "darak" bergen. Masalan, erta bahorda laylakni ko'rish baxtdan nishona deyilsa, laylak uchib kelgan tomondan ko'ringan odam qishloqqa qut-baraka keltiradi, deb e'tiqod qilingan. Chunonchi, barvaqt uchib kelgan turna erta bahorni daraklasa, pastlab uchgan turna rizq-ro'z unumli bo'lishini anglatgan va hokazo¹.

¹ Navro'z. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, M. Jo'rayev. Toshkent. Fan. 1992, 85 – 90-b.



ARG'AMCHI

Shoshmasdan

Naqarot:

Ar - g'am - chi, gi - lam - chi, ar - g'am- chi, gi- lam -chi,
Band

Tur - na de- sam tu -rum - li, keng da -la - ga qo'- num - li.

Tur - na- lar uch - sa past- lab riz - qing ke- lar u- num - li.

Naqarot:

Ar - g'am - chi, gi - lam - chi, ar - g'am- chi, gi- lam -chi,

Bolalar qushlarning uchib kelishini intazorlik bilan kutishgan. Chunki qushlar issiq kunlar boshlanishining “xabarchisi” hamdir. Shu bois, masalan, laylak uchib kelganini ko‘rgan bolalar “Laylak keldi” qo‘srigini kuylashgan va bu haqda kattalarni ham xabardor etishga oshiqqanlar:

Laylak keldi, yoz bo‘ldi,
Qanoti qog‘oz bo‘ldi.
Dala-dashtlar qulf urib,
Daryo bo‘yi soz bo‘ldi...

Goho xo‘rozlarning qo‘ng‘iroqdek ovozlari ham bolalarning zavqlanishiga sabab bo‘lib, ular xo‘rozlarning “qu-qu”lashiga taqlid eta boshlaganlar. Shu tarzda xo‘roz haqida qo‘shiqlar yuzaga kelgan.

O‘zbek xalq qo‘srigi



QICHQIR, XO'ROZIM

Quvnoq

Xalq qo'shig'i

Qich - qir, xo' - ro - zim, qich - qir, xo' - ro - zim,
 Bo - la - lar uy - g'on - sin, hey! Bog' - lar, o'r - mon,
 te - pa - lar - da lo - la - lar o - chil - sin.
 Qu - qu, qu - qu, qu - qu, qu - qu.

Qichqir, xo'rozim, qichqir, xo'rozim,
 Bolalar uyg'onsin.
 Bog'lar, o'rmon, tepalarda
 Lolalar ochilsin.

Qichqir, xo'rozim, qichqir, xo'rozim,
 Tonglar yorishsin.
 Tong havosi, quyoshidan
 Bolalar quvonsin.



BULBULCHA

M. Qo'shoqov she'ri

Mayin

O' - zing kich - ki - na, o - vo - zing yax - shi.

M. Nasimov musiqasi

Qa-ni, bul - bul - cham, bir say - rab ber - chi.
 Qa-ni, bul - bul - cham, bir say - rab ber - chi.
 May - li, o'r - toq - jon, May - li, say - ray - man.
 Ko'm - ko'k bo - g'ing - da u - chib yay - ray - man.

- O'zing kichkina,
Ovozing yaxshi.
Qani, bulbulcham,
Bir sayrab ber-chi.
- Shirin bulbulcham,
Kuylayver chaq-chaq.
Tinglab qo'shig'ing
Dillar xushchaqchaq.
- Mayli, o'rtoqjon,
Mayli, sayrayman.
Ko'm-ko'k bog'ingda
Uchib yayrayman.
- Mehnat qilbsan,
Ekibsan gullar.
Gulni sevamiz
Bizlar — bulbullar.

- ?! 1.** Qushlar haqida qanday qo'shiqlarni bilasiz?
2. "Bulbulcha" qo'shig'inining asosiy tayanch pardasini aniqlang.
3. "Bulbulcha" qo'shig'ini yod oling.

6-7-Mavzu. BASTAKOR FAXRIDDIN SODIQOV

Atoqli san'atkor Faxriddin Sodiqov (1914 – 1977) o'zining sermazmun qo'shiq-ashulalari va betakror cholg'u kuylari bilan o'zbek musiqa rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.



Faxriddin Sodiqov

Xususan, bastakor “O’zbekcha vals”, “Vatan marshi”, “Qurilish marshi” cholg’u kuylari, “O’zbekiston”, “To’y muborak”, “Dutorim”, “Bir go’zal”, “Tinchlik qo’shig’i”, “Shirmonoy”, “Zarafshon” kabi qo’shiq va ashulalari milliy musiqa xazinamizdan munosib o’rin olgan.

Bunday mazmundor asarlarni ijod etishda F.Sodiqovning bastakorlik iste’dodi hamda chang va dutor cholg’ularini mukammal bilganligi muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Bu fazilat bastakorning yana boshqa ko’plab asarlarida ham namoyon bo’ladi.

Jumladan, bunga F.Sodiqovning shoir Akmal Po’lat she’riga bastalagan “Qorabayir” qo’shig’i misol bo’lishi mumkin.

Qorabayir – O’zbekistonda yetishtiriladigan ot zoti bo’lib, undan salt minishda hamda aravaga qo’shib yuk tashishda foydalaniładi. “Qorabayir” qo’shig’ida dehqonlarimizning og’irini yengil qilishga xizmat qilib kelayotgan ana shunday otlar vasf etiladi. Qo’shiqning cholg’u asboblarida ijro etiladigan kirish qismi va naqarotlari chavandozning mardonavor yurishini, she’riy bandlarning kuy-ohanglari esa keng dalalarni va ularda yelib-yugurayotgan otlarni tasvirlaydi.



QORABAYIR

A. Po'lat she'ri

F. Sodiqov musiqasi

Ildam

The musical score consists of two staves of music in 4/4 time, key signature of one sharp (F#). The first staff begins with eighth-note patterns. The second staff starts with sixteenth-note patterns. The lyrics are written below the notes, aligned with the vocal line.

Chor- va- miz- ning
sav-la- ti-dur qo-ra- ba-yir o- ti - miz, yil- qi-miz- ning
. chi- ro- yi - dur, bu-kil- mas qa-no-ti-miz.
Er- ka- la-nib kish-na- gan - da
ja-rang-lar da- la, tog' - lar, jan-go- var - lik
xis- la- ti ko'p, Meh- nat- da ko'n- gil chog'- lar,
meh-nat-da ko'n- gil chog'- lar. Oh, jon tul-po-ri-
miz.

Ye-li-shi-ga
 teng ke - lol - mas hat-to ko'k-da bur- gut - lar,
 qil - gan i-shi el - ga man - zur, maq- to- vi bor
 bir daf - tar. Har kun u -ni er - ka- la - tib
 yol-la- ri- ni ta- ray- man, men o- tim- ga
 me-hr qo'- yib ham- ro- him deb qa- ray - man.
 Ham-ro- him deb qa-ray - man. Oh, jon tul- po-ri-miz.



YOZ YAXSHI

P. Mo'min she'ri

D. Zokirov musiqasi

O'rtacha tez

Yoz ke - zar yash - na - gan e - lim -
 Qush - la - rim say - ra - shar, qay - na -
 da, yoz zav - qi ti - lim - da,
 shar, bu - loq - lar shi - vir - lar,

A musical score for three voices. The top voice starts with a melodic line: a dotted half note, followed by a quarter note, a eighth note, another eighth note, and a quarter note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "di-lim-shil-di". The middle voice begins with a quarter note, followed by a eighth note, a quarter note, and a eighth note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "da-rar.". The bottom voice starts with a quarter note, followed by a eighth note, a quarter note, and a eighth note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "yoz-yax-shi,". The middle voice continues with a quarter note, followed by a eighth note, a quarter note, and a eighth note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "yoz-yax-". The bottom voice continues with a quarter note, followed by a eighth note, a quarter note, and a eighth note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "shi,". The middle voice continues with a quarter note, followed by a eighth note, a quarter note, and a eighth note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "yox-yax-". The bottom voice continues with a quarter note, followed by a eighth note, a quarter note, and a eighth note. This is followed by a sustained note over a fermata. The lyrics are "shi!".

Yoz kezar yashnagan elimda,
Yoz zavqi tilimda, dilimda.
Qushlarim sayrashar, qaynashar,
Buloqlar shivirlar, shildirar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

Quyoshday mehnatim qudrati,
Pahlavon xalqimning sur'ati,
Yurtimni bezagan, qaranglar,
Yoz kuyi har yonda jaranglar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

CHAMANDA GUL

O‘zbek xalq qo‘sning ‘shig‘i

 Quvnoq

A musical score for 'Chamanadagul' featuring three staves of music with lyrics written below them. The music is in common time (indicated by 'C') and consists of measures with various note values (eighth and sixteenth notes) and rests. The lyrics are: Cha-man-da-gul o-chi-lib-di-yo cha-kang-ga taq, cha-kang-ga. Biz-ning hov-li yo'-lin-giz, chin-ni bax-mal to'-nin-giz, Cha-man-da-gul.



- ?**!
1. 6/8 takt o'Ichoviga qay tarzda dirijorlik qilinishini o'ng qo'lingiz bilan ko'rsating.
 2. Major tonalligida yarim tonlar qaysi tovush bosqichlari orasida yuzaga keladi?
 3. Minor tonalligida yarim tonlar qaysi tovush bosqichlari orasida yuzaga keladi?

MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

- 1. Qaysi qatorda “Bayram va marosim” qo’shiqlari to‘g’ri ko‘rsatilgan?**
 - A) “Lapar”, “Oh, layli”, “Sovuq kimni izlaydi?”
 - B) “Yor-yor”, “Kelin salom”, “Ot o‘yin”, “Charx”.
 - C) “Maktab”, “Alla”, “Yalla”.
- 2. Baxshilar qaysi janrda kuylaydilar?**
 - A) Laparlarni.
 - B) Doston qo’shiqlarini.
 - C) Allalarni.
- 3. Ramazon aytimlari qachon kuylanadi?**
 - A) To‘y va marosimlarda.
 - B) Ramazon oyida xufton vaqtida.
 - C) Chaqaloqlarni uxlatish maqsadida.
- 4. O‘zbek xalq raqslari qaysi qatorda to‘g’ri ko‘rsatilgan?**
 - A) “Kamarinskaya”, “Gopak”, “Bulba”.
 - B) “Lazgi”, “Dilxiroy”, “Tanavor”.
 - C) “Polka”, “Mazurka”, “Shag‘ala”.

5.	1.	<table border="1"> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> </table>								Q	<table border="1"> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> </table>							
			O'															
	2.	SH																
	3.	N																
	4.		A															
	5.		Y															

1. Damli puflama cholg'u.
2. Qoraqalpoq xalq o'yin-raqsi.
3. Puflama cholg'u.
4. Zarbli cholg'u.
5. Damli cholg'u.

BILIB QO'YING!

1. Qo'shiq aytayotganda bosh va gavdani to'g'ri tuting.
2. Mashqlar va qo'shiq kuylayotganda nafasni tejab ishlating.
3. Qo'shiq so'zlarini aniq talaffuz qiling. Bunda unli tovushlarni cho'zibroq, undosh tovushlarni esa qisqa aytishga harakat qiling.
4. Qo'shiq so'zlarini tushunib, uning ma'nosiga mos ravishda kuylang.
5. Jamoa bo'lib kuylayotganda o'z ovozingiz bilan birga sinfdosh o'rtoqlaringizning ham ovozini tinglab, hamohang aytishga intiling.
6. Qo'shiq kuylayotganda yoki uni o'rganish davomida o'qituvchingiz ko'rsatmalariga rioya qiling.

MUSIQA LUG'ATI

Aytim — ovozda kuylash, aytish uchun mo'ljallangan barcha musiqiy namunalarning umumlashma nomi.

Afg'on rubobi — torli-chertma cholg'u, u mizrob (mediator) vositasida chalinadi. Uning kosasi chuqur o'yilgan va teri bilan qoplangan bo'ladi, kalta va yo'g'on dastasida to'rtta bog'lama pardasi bor. Dastasining yuqori qismida 6 ta yoki 7 ta qo'shimcha ("xas") pardalari ham bo'ladi. Afg'on rubobining 5 ta asosiy torlarida kuy chalinadi. Shuningdek, uning yon tomonidan 10–11 ta yordamchi yonquloq simlari ham tortilgan bo'lib, ular aks sado sifatida yangraydi.

Bastakor (fors. toj.) — basta — bog'lov, kor — ish) — ma'lum parda va kuy-ohanglariga turli xil doira usullari va so'z (g'azal)larni bog'lab, ashula, qo'shiq kabi asarlarni ijod etuvchi sozanda (yoki xonanda).

Bulamon — tut daraxtidan ishlangan surnay shaklli cholg'u. Ammo surnaydan hajmi kichik, puflamasi esa sibiziqniki kabi (tilchali) ekanligi bilan farq qiladi.

Doira — (boshqacha nomi — childirma) — zarbli sozning gardishi tok zangidan yoki o'rik, yong'oq yog'ochidan tayyorlanib, bir tomonidan buzoq (yoki kiyik, echki) terisi qoplanadi. Gardishining ichki tomoniga 40 dan ziyod ma'dan halqachalar osiladi.

Dutor — ikki torli chertma cholg‘u, tut, o‘rik yoki yong‘oq daraxtidan tayyorlanadi. Dastagiga 13–14 ta ipakli parda bog‘lanadi.

Do‘mbira — dutor kabi ikki torli chertma cholg‘u, dutordan o‘ziga xos “bo‘g‘iq” tovushi, nisbatan qisqa va silliq (parda bog‘lanmagan) dastasi kabilar bilan farq qiladi.

Karnay — misdan yasalgan damli (puflama) cholg‘u bo‘lib, uzunligi **2 metr** va undan ham ortiq bo‘lishi mumkin. O‘tmishda uning “tirsakli” (siniq chiziqli) ko‘rinishi ham qo‘llangan.

Olib yurishda qulay bo‘lishi uchun 3 qismga ajraladi. Karnayda barmoqlar bilan bosiladigan parda-teshiklar bo‘lmaydi.

Kuchli va yo‘g‘on ovozga egaligi sababli o‘tmishda to‘y-marosimlaridan tashqari yana harbiy yurishlar va ov jarayoni vaziyatlarida ham qo‘llangan. Ansambl tarkibida tantanavor va ko‘tarinki kayfiyat tug‘diradi.

Kompozitor (*Iot. compositor* – tuzuvchi, ijod etuvchi) — G‘arbiy Yevropa musiqa madaniyatida yuzaga kelgan musiqa ijodkorligi. Asosan opera, simfoniya, sonata, balet, oratoriya kabi ko‘p ovozli musiqiy janrlarda asarlar yozuvchi ijodkor.

Nog‘ora — loydan tuvaksimon shaklda yasalib, sopol darajasiga qadar pishiriladi. Kosasi kiyik (yoki boshqa hayvon) terisi bilan qoplanadi. Nog‘oralar hajmiga qarab katta (do‘l nog‘ora), o‘rtacha (ko‘s nog‘ora) va kichik (rez nog‘ora) turlarga bo‘linadi.

Sato — torli-kamonli cholg‘u. Tut daraxtidan o‘yib ishlangan kosasi va uzun dastagi tanburni eslatadi.

Sibiziq — oddiy qamishdan yasalgan damli cholg‘u. Puflama tomonidan tilcha kesilgan bo‘lib, old tomonida barmoqlar bilan bosiladigan uchta parda – teshikchasi bor.

Surnay — o‘rik yoki yong‘oq yog‘ochidan o‘yib yasaladi. Uning old tomonida yettita, ostida esa bitta parda-teshikchasi bor. Surnayda raqs kuylari, xalqimiz orasida keng tarqalgan ommaviy qo‘sish va ashulalarning kuylari hamda maqomlarning “surnay yo’llari” ijro etiladi. Ansambl tarkibida ham surnay asosiy kuy yo’llarini sadolantiradi.

Tanbur — torli chertma cholg‘u. Tut yog‘ochidan tayyorlanadi. Uzun dastasida 16 tacha bog‘lama pardasi bor. Kosa qopqog‘iga 4 ta cho‘p (xas) qo‘sishimcha parda yelimlangan bo‘ladi. Tanburdag‘i torlarning soni uchtadan oltitagacha bo‘lishi mumkin. Hozirda ko‘proq uch va to‘rt simli tanbur qo‘llaniladi. Torlar ko‘rsatgich barmoqqa kiyiladigan maxsus noxun vositasida chertiladi.

Ud — torli-chertma cholg‘ularning eng ko‘hnalaridan biri hisoblanadi. U tanbur va dutordan o‘zining nok shaklidagi katta kosasi va silliq (parda bog‘lamalari bo‘Imagan) kalta dastasi bilan ajralib turadi. Ud sozida 11 ta tor bo‘lib, shulardan beshtasi qo‘shaloq tarzda, bittasi esa quyi yo‘g‘on tovush o‘rnida qo‘llaniladi.

Chang — torli-urma soz, unda jami 40 ta sim (tor) bo‘ladi. Shulardan 13 tasi uchtadan birlashib taqsimlangan holda, bitta simi quyi yo‘g‘on torga ajraladi. Changning torlari 2 ta cho‘p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi. A.Oripov so‘zi, M.Burhonov musiqasi	4

BIRINCHI CHORAK Xalq aytimlari va cholg‘ulari

1–2-Mavzu. Xalq qo‘sishqlari	7
3-Mavzu. Mehnat qo‘sishqlari	12
4-Mavzu. Lapar	16
5-Mavzu. Yalla	19
6–7-Mavzu. O‘zbek xalq cholg‘ulari	21
8-Mavzu. Damli va zarbli cholg‘ular	30

IKKINCHI CHORAK Bayram va marosim qo‘sishqlari

1-Mavzu. Bayram va marosim qo‘sishqlari	35
2–3-Mavzu. To‘y marosimi qo‘sishqlari	38
4-Mavzu. Xalq raqslari	44
5–6-Mavzu. Alla aytimlari	48

UCHINCHI CHORAK Mavsum qo‘sishqlari

1-Mavzu. Mavsum va marosim qo‘sishqlari	57
2–3-Mavzu. Qish fasli qo‘sishqlari	64
4–5-Mavzu. To‘xtasin Jalilov hayoti va ijodi	67
6–7-Mavzu. Ramazon marosimi aytimlari	76
8–9-Mavzu. Navro‘z bayrami qo‘sishqlari	80

TO‘RTINCHI CHORAK BAHOR FASLI QO‘SHIQLARI

1-Mavzu. Bahor fasli qo‘sishqlari haqida tushuncha	85
2-Mavzu. Bolalar xalq qo‘sishqlari	89

3-Mavzu. Bastakor Komiljon Jabborov	92
4–5-Mavzu. Bahor elchilari va tabiat	95
6–7-Mavzu. Bastakor Faxriddin Sodiqov	98
Musiqa lug‘ati	105

Oqilxon Ibrohimov

MUSIQA

4-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri

Muharrir *Munojot Abralova*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*

Musahhih *Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Bobur Tuxtarov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016
2017-yil 30-mayda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90¹/₁₆.
PragmaticTAD garniturasi. Kegli 14. Ofset bosma.
8,19 shartli bosma toboq. 8,5 nashr tobog'i.
Adadi 531889 nusxa. ____raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chmagan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.